

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI  
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI  
“XALQ IJODIYOTI” FAKULTETI “IJTIMOIY MADANIY FAOLIYAT”  
TA‘LIM YO‘NALISHI**

**“MADANIYAT VA SAN‘AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA  
BOSHQARISH” KAFEDRASI**

**“JISMONIY TARBIYA VA SPORT IJTIMOY-MADANIY  
FAOLIYAT SOHASI SIFATIDA”**

**mavzusidagi**

## **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

“Bitiruv malakaviy ish kafedrada  
dastlabki himoyadan o‘tdi”

“Madaniyat va san‘at muassasalarini  
tashkil etish va boshqarish”  
kafedrasining \_\_\_\_ - sonli yig‘ilish  
bayonnomasi

“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2014 yil

Kafedra mudiri

Katta o‘qituvchi: Shodiev X.X

**Bajardi:** “Ijtimoiy madaniy faoliyat” ta‘lim  
yo‘nalishi bitiruvchisi

Norboev Ruslan

**Ilmiy rahbar:**

s.f.d., professor. A.A. Umarov

**Toshkent – 2014**

## MUNDARIJA

<b>Kirish .....</b>	<b>3</b>
<b>I. BOB. IJTIMOIIY-MADANIY FAOLIYAT SOHASI ORQALI SPORT TADBIRLARNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI</b>	
1.1. Jismoniy tarbiya va sport xalq o‘yinlari sifatida shakllanishi .....	8
1.2. Barkamol shaxsni tarbiyalashda madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiy va sport tadbirlarining o‘rni .....	18
<b>II. BOB. JISMONIY TARBIYA VA SPORT IJTIMOIIY-MADANIY FAOLIYATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA</b>	
2.1. Barkamol avlod sport musobaqalari milliy bayrami .....	32
2.2. Ijtimoiy madaniy faoliyat orqali yoshlarning jismoniy tarbiya va sportga qiziqishlarini oshirish .....	43
<b>Xulosa .....</b>	<b>54</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati .....</b>	<b>57</b>
<b>Ilovalar .....</b>	<b>59</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi:** Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli aniq yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish masalalariga ayniqsa yoshlarni sportga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish muhim masalalardan biri hisoblanmoqda.

Barkamol avlod tarbiyasi insonning eng yorqin orzusi bo‘lib kelgan. Biroq dunyo xalqlarining barchasi ham bu haqida o‘ylashmagan. Bunday orzudagi insonlar azaliy ma'rifatga, madaniyatga mansub bo‘lgan yurtlarning donishmandlari eng mo‘tabar ziyolilar hisoblanganlar.

Shunday ekan yurtimizni azaldan daholar yurti deb haqli ravishda hammamiz faxrlanib kelamiz. Imom Buxoriy, Ibn Sino, Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy va Mirzo Bobur kabi buyuk allomalarimiz o‘zlarining yorqin istedodlarini juda yoshlik chog‘laridan namoyon qilganlar. Shuning uchun buyuklik, yuksak iste'dod egasi bo‘lish qonimizda bo‘lib, hozirgi kunda ko‘plab iqtidorli bolalarning yetishib chiqayotganligi bejiz emas.

Prezidentimiz I.A.Karimov o‘zlarining "Barkamol avlod orzusi" "Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori " nomli asarlarida "Kuch - bilim va tafakkurda" degan g‘oyalarini ilgari surib, yoshlarni shunday bo‘lishga undaganliklari bejiz emas. Chunki bugungi yoshlar ertangi yurt egalaridir. Shuningdek, yurtboshimiz komil inson deganda, biz avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘la oladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushinamiz, diydilar<sup>1</sup>.Sog‘lom barkamol avlodni voyaga yetkazish orzusi aynan mustaqillik bilan bog‘liq ezgu intilish bo‘lgani bois, istiqloqlarning birinchi kunlaridan boshlab uni amalga oshirish eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘lib kelmoqda. Yurtimizda 2008 - yilni "Yoshlar yili" deb, 2010 - yilni esa "Barkamol avlod yili" 2014-yilni "Sog‘lom bola" yili deb nomlanishi ham bunga yaqqol misol

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. "Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori ". "Manaviyat".

bo'la oladi. Shu boisdan iqtidorli iste'dodli, qobiliyatli, aql-zakovati cheksiz rivojlangan, zukko, tafakkuri kuchli yoshlarni rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratilishi lozim.

Prezidentimiz I.A.Karimov "Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati" nomli risolasida shunday deb ta'kidlaydi: Tarbiyachi - ustoz bo'lish uchun boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqoro etib yetishtirish uchun eng avvalo tarbiyachining o'zi shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak"<sup>1</sup>. Bu o'z navbatida kichik o'smir tarbiyachilarning yuksak kasbiy va shaxsiy fazilatlar egasi bo'lishini taqozo etadi.

Ta'lim tarbiya tizimidagi islohatlar sog'lom avlod tarbiyasi, xalqimiz va ayniqsa yoshlarning ijodkorlik, yaratuvchanlik faolligini, vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytiradi. Natijada o'sib kelayotgan "yosh avlodning" barcha keng imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi. Kasbkori, mahorati uzluksiz takomillashadi. Katta avlodning dono tajribasi anglab olinadi yoki avloddan-avlodga o'tadi. Yoshlar ularning iqtidorligi, bilim va ma'naviyatini tushunib boradi. Ayniqsa Prezidentimiz I.Karimovning 2004 - yil 27-sentyabrda "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi"ni tashkil etish to'g'risidagi farmoniga muvofiq, madaniyat va sport tadbirlarini tashkil etishni keng ko'lamda amalga oshirish ishlarini yanada jadallashtirishga imkoniyat yaratildi. Madaniyat va sportni rivojlantirish muammolarini kompleks tarzda hal etish, jismonan sog'lom, ma'naviy jihatdan boy va barkamol shaxslarni tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish, sog'lom turmush tarzi va sportga muhabbat tuyg'usini singdirish, aholining madaniy va estetik talab-ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish, shuningdek madaniyat va sport sohasini boshqarishni takomillashtirish, bu sohada davlat siyosatini amalga oshirishni muvofiqlashtirish darajasini ko'tarish maqsadida bir qator vazifalarni belgilab qo'yilgandi. Masalan;

- jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish, aholini, birinchi navbatda yoshlar va bolalarni sport bilan shug'ullanish zarurligini anglash ruhida

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov "Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati" nomli risolasi.

tarbiyalash, sog'lom turmush tarzi va sportga muhabbat ishtiyoqini singdirish, yoshlarni mehnatga va respublika qurolli kuchlarida xizmat qilishga tayyorlash;

- olimpiya o'yinlarida, jahon va osiyo chempionatlarida, xalqaro musobaqalarda O'zbekiston sharafiga munosib himoya qiladigan va yuqori sport natijalariga erisha oladigan yuksak mahoratli sportchilarni tayyorlash maqsadida olimpiya zahirasi muassasalarini qo'llab-quvvatlash va zarur shart-sharoitlarni yaratish, jumladan, ularning moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash;

- xalq o'yinlari, milliy sport turlari bo'yicha musobaqalar tashkil qilish va o'tkazish;

- turar-joylar va mahallalarda madaniy-ma'rifiy faoliyatni, aholini madaniy va jismoniy jihatdan tarbiyalashni tashkil qilishda, fizkultura sog'lomlashtirish va ommaviy sport ishlarini o'tkazishda davlat va jamoat tashkilotlari, o'quv yurtlari, mahalliy hokimiyat organlari bilan faol hamkorlik qilish va ularga yordam ko'rsatish; kabi ishlarni amalga oshirish borasida amalga oshirilgandi va bu say-harakatlarning barchasi bugungi kunda o'z samarasini bermoqda.

Inson shaxsi va uning harakteri, shu bilan birga qiziqish va qobiliyatlari bolalikning ilk yillaridanoq shakllanib boradi. Bolalarning kelajagidan umidvor bo'lgan jamiyat bu jarayonga faol aralashishi va inson shaxsini kamolga yetkazish borasidagi vazifalarga psixologik nuqtai nazardan yondashishi lozim. Ayniqsa, bog'cha guruhidagi bolalarning aqliy (jismoniy) imkoniyatlari ularning ta'lim-tarbiyasiga, intellektual salohiyat darajasiga hamda shaxslararo munosabatlariga, bola harakterining shakllanishiga, shuningdek guruhdagi ruhiy muhitga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bundan kelib chiqadiki, barkamol shaxsni rivojlantirishda sport tadbirlarining roli hamda madaniyat muassasalari va ijtimoiy muhit va biologik omillarining ta'sirini o'rganish dolzarb muammolardan biridir.

**Tadqiqotning o'rganilganlik darajasi.** Jismoniy tarbiya nazariyasining ilmiy-tabiiy asosi (anatomiya, fiziologiya, gigiyena, bioximiya, biomexanika...)dan tarkib topadi. I.M.Sechenov va I.V.Pavlov ta'limotlari, shuningdek harakat ko'nikmalarini shakllantirish va jismoniy sifatlarni rivojlantirish, ta'lim va tarbiya jarayonini to'g'ri qurish qonuniyatlarini tushunish

imkonini beradigan oliy nerv faoliyati haqidagi zamonaviy tadqiqotlar muhim o‘rin egallaydi.

**Tadqiqotning maqsadi:** Respublika hududlarida barkamol shaxsni shakllantirishda madaniyat muassasalari faoliyatida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini uyishtirish masalalarini takomillashtirish hamda ularning samaradorligini oshirishga doir ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- jismonan sog‘lom, yuksak intellektual salohiyatli avlod tarbiyasi mazmunini yoritish;

- barkamol shaxsni shakllantirishda jismoniy tarbiyaning o‘rni rolini aniqlashtirish;

- madaniyat muassasalarida, mahallalarda, oilada va ta'lim muassasalarida iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash texnologiyasini ko‘rsatib berish;

- jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali barkamol shaxsni shakllantirishni aniqlash metodikasini ishlab chiqish orqali mazkur jarayon samaradorligini oshirishga doir ilmiy - metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

**Tadqiqotning predmeti:** Madaniyat muassasalari va sport o‘yinlarini tashkil etish muassasalari hamkorligida barkamol shaxsni tarbiyalash bilan ishlash mazmuni va texnologiyasi belgilangan.

**Tadqiqotning ob'yekti:** Respublika hududlaridagi madaniyat muassasalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining o‘quvchilar bilan ishlash jarayoni olindi.

**Tadqiqot ishining metodlari:** kuzatuv, suhbat, na'muna qilib ko‘rsatish, kabi metodlardan fodalanildi.

**Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi:** Jismoniy tarbiya va sport ijtimoiy madaniy faoliyat sohasi sifatidaligining texnologiyasi loyihalandi.

**Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalaridan ushbu sohaga qiziqqan kollej, maktab o‘qituvchilari hamda universitet va institutlarda taxsil olayotgan talabalar uslubiy manbaa sifatida foydalanishlari ko‘zda tutilgan.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi:** Bitiruv malakaviy ishi kirish, to‘rt paragraf, xulosa hamda tavsiyalar, ilovalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

# **I. BOB. IJTIMOIIY-MADANIY FAOLIYAT SOHASI ORQALI SPORT TADBIRLARNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI**

## **1.1. Jismoniy tarbiya va sport xalq o'yinlari sifatida shakllanishi**

Qadimdan vatanimizda bayram va musobaqalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq hodisalar bo'lib kelgan. Ko'pincha bayram kunlari yirik musobaqalar o'tkazilgan va alohida o'tkazilgan musobaqalar ham bayramlarga aylanib ketgan.

Hozirgi kunda O'zbekiston ko'pgina xalqaro musobaqalar o'tkaziladigan joyga aylanmoqda. Bunday yirik sport tadbirlari eng avvalo millat sog'lig'i mustahkamlanganini, sportchilarimiz mahorati o'sayotganini, O'zbekistonning jahonda obrusi ortib borayotganini namoyish qilmoqda.

Mustaqil Respublikamizni jahonga tanitishda sportning ahamiyati katta bo'lib. Hozirgi kunda milliy o'yinlar, jumladan kurash, uloq, xalqaro sport turlari - tennis, boks, futbol kabilar dunyo xalqlari o'rtasida o'zbeklarning obrusini oshirmoqda.

Sportni yanada rivojlantirish, respublikamiz vakillarining jahon chempionatlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishlarida 1999-yil 27-mayda e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining «O'zbekistonda fizkulto'ra va sportni yanada rivojlantirish to'g'risidagi qarori muhim ahamiyatga ega bo'ldi<sup>1</sup>.

Vazirlar Mahkamasining bu qarori jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, kasalliklarning oldini olish va ogohlantirish, aholi keng qatlamlarini, ayniqsa yoshlarni badantarbiya hamda sport bilan shug'ullanishiga jalb etish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 10-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to'g'risidagi Farmonini amalga oshirish maqsadlarini ko'zlab qabul qilingan edi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining «O'zbekistonda fizkulto'ra va sportni yanada rivojlantirish to'g'risidagi qarori 1999-yil 27-mayda.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to'g'risidagi Farmonini. 1998-yil 10 noyabr.



Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasida fizkulto‘ra va sportni rivojlantirish Davlat dasturi konsepsiyasini hamda uni amalga oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat Sport qo‘mitasi va tegishli vazirliklar hamda idoralar ishlab chiqqan tadbirlarni ma’qulladi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat Sport qo‘mitasi, Milliy Olimpiya qo‘mitasi, Xalq ta’lim vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi boshqa vazirliklar hamda idoralar, Qoraqalpog‘iston respublikasi vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, kasaba uyushmalari Respublika kengashi, «Kamolot», «Sog‘lom avlod uchun», «Mahalla» xayriya jamg‘armalari sportni rivojlantirish davlat dasturini amalga oshirishni ta’minlash yuzasidan aniq tadbirlar ishlab chiqishi<sup>1</sup>:

- har bir tumanda qishloq sport-sog‘lomlashtirish klublari tuzish, ular faoliyatiga sportning ommaviy, milliy turlari va xalq o‘yinlarini keng joriy etish;

- aholi barcha qatlamlarini fizkulto‘ra-sog‘lomlashtirish va ommaviy-sport ishiga keng jalb etishga qaratilgan muntazam ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish hamda o‘tkazish tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- mamlakat hududidagi barcha sport inshootlarini ularning idoraviy ro‘yxat (inventarizatsiya) qilish. Shuningdek mintaqaviy xususiyatlari) hisobga olgan holoda, ommaviy musobaqalarni muntazam o‘tkazib turish bo‘yicha aniq choralar belgilash;

- aholining jismoniy tayyorgarligi va sog‘ligi darajasini aniqlovchi maxsus testlar ishlab chiqish hamda joriy etish. Ushbu testlarni muvaffaqiyatli topshirganlar uchun ikki darajali «Alpomish» va «Barchinoy» nishonlari ta’sis etish taklif qilindi.

Ushbu testlarni muvaffaqiyatli topshirganlar uchun Vazirlar Mahkamasining qarori bilan “Alpomish” va “Barchinoy” nishonlari ta’sis etildi. Shuningdek Toshkentda boksni rivojlantirish respublika markazi hamda Toshkent Otchopor markazida milliy sport turlarini rivojlantirish respublika markazini yaratish, “sport bayrami” umumxalq bayramini ta’sis etish nazarda tutildi.

---

<sup>1</sup> [www.google.uz](http://www.google.uz) <<http://www.google.uz>>

XX asr oxiri - XXI asr boshida o‘yin borasida har ikki yo‘nalish ko‘zga tashlanmoqda. Birinchidan milliy o‘yinlar tiklanmoqda, ikkinchidan yangi o‘yinlar paydo bo‘lmoqda.

Aytish mumkimki ittifoqimizda o‘tkazilgan xalq o‘yinlari bayramlari o‘zbek ma’naviy va jismoniy madaniyati tarixida yangi va o‘chmas saxifa bo‘lib qoldi. Ilk bor Forishda o‘tkazilgan «Xalq o‘yinlari bayrami»da yongan mash’ala respublikamizning ko‘plab joylariga azaliy o‘yin-tomosha an’alarini tiklashga imkoniyat yaratdi. Agar 1990-yil “Xalq o‘yinlari” bayrami ikki qishloq - Sayyod va birlashganlar o‘tkazilgan bo‘lsa, 1991-yil u Forish tumani darajasida o‘tkazildi, 1992-va 1993-yillar Jizzax viloyati darajasida bu barcha tumanlarning faol ishtiroki ila uyushtirildi. 1994-yil Forish tajribasi yangi pog‘onaga ko‘tarildi. Bu yerda I Respublika «Xalq o‘yinlari» olimpiadasi o‘tkazilib, unda Vatanimizning barcha viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Rsspublikasi vakillari qatnashadi.

Olimpiadada azaliy xalq o‘yinlari «Bo‘ron», «Chavandoz», «Olib qochar» «Yelka kurash», «Qirq tosh», «Mindir», «Tortishmachoq» kabi turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazilib, g‘oliblar taqdirlandi.

Forish tumanining «Qizil qir» sayilida o‘tgan. Respublika «Xalq o‘yinlari» Olimpiadasi dasturida: ochilish marosimi tiklangan xalq o‘yinlarining namoyishi ko‘rgazmachi chiqishlar, ko‘rik tanlovlar, Respublika viloyatlari g‘oliblarining musobaqalari g‘oliblarni taqdirlash va hokazo tatbirlar o‘z aksini topdi.

2. Respublika «Xalq o‘yinlari» olimpiadasi ham Forishda bo‘lib o‘tdi anjumanlar 6-mayda qadimiy va navqiron Jizzax shahrida boshlanib, 7 may go‘zal va azaliy an’analarga boy Forish tumanida avjiga chiqdi. Tog‘li Forishning tabiat tomonidan yaratilgan «qizil qir» sayilgohida Respublikamizning turli burchaklaridan kelgan sportchilar bellashuvlarning g‘oliblari ajdodlarimizning qadimiy o‘yinlari bo‘yicha musobaqalarda qatnashdilar. Bu anjuman xalqimizning tarixiy merosini uzilgan tomirlarini tiklash va unga jon berishga xizmat qildi. Millatimizning ma’naviy va jismoniy qadriyatlarini tiklashga xizmat qiladigan bu

yirik anjuman madaniyatimiz tarixida yangi yana bir saxifa bo'lib, u xalqimizning ruhiy, aqliy, jismoniy barkamol bo'lishiga yo'l ochdi<sup>1</sup>.

Har ikki yilda o'tkazilgan xalq o'yinlari anjumani 1998-yil «Alpomish» dostoni yaratilganining 1 ming yilligida bag'shlanib, Termiz shahridiga ko'chirildi. Bu festival «Alpomish o'yinlari» deb nomlandi. U ajdodlarimiz tarixida muhim o'rin to'tgan Alpomishdek xalq qaxramonlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan «kamondan otish», «nishonga urish» «suzish», «kurash» xullas, «Alpomish»ga bag'ishlagan Respublika festivalining uyushtirilishi Alpomish davridagi dostonlarga ko'chgan xalq o'yinlarining tiklanishi ila muhim voqea bo'ldi.

1999-yil - «Ayollar yili»ga bag'ishlanib Jizzaxda, 2001-yil Shahrizabzda «To'maris» qizlari o'yinlari festivali o'tkazilishi diqqatga sazovor bo'ldi. Agar To'maris jang maydonida g'olib bo'lgan bo'lsa, bizning qizlarimiz sport maydonlarida g'olib bo'lishga intilishdi. «To'maris» festivali - o'zbek xotin-qizlarini sport sohasidagi qiziqish uyg'otdi desak xato qilmagan bo'lamiz. Bu festival xalqimiz orasida To'marisdek mard jasur kuchli go'zal qizlar borligidan dalolat beradi.

Farg'ona viloyatida 2000-yil bo'lib o'tgan «Alomish o'yinlari» - 2 festivali xalq o'yinlarining yana bir pog'onaga ko'tarilganidan dalolat beradi. Festival («Kurash» «qo'l kurashi», «Tepa kurash», «Yoydan o'q otish» kabi) musobaqalar bo'yicha sportchilarning tajribasi ortganligi va bu o'yinlarga ishqibozlarning qiziqishi oshganligi ham ma'lum bo'ldi. Festival ilmiy-amaliy anjuman esa xalq o'yinlari sohasidan yutuqlar bilan bu borada qator muammolar mavjudligiga ham diqqatni jalb qildi jumladan, xalq o'yinlari bo'yicha ilmiy-uslublar manbalar, o'quv va darsliklar yaratilishi lozimligi, milliy o'yinlarning muayyan turkum va turlari bo'yicha aloxida tuman, viloyat respublika musobaqalari (masalan ot o'yinlari)ni o'tkazish darkorligi, axoliga xalq o'yinlari bilan shug'ullanish uchun qulay sharoitlar yaratish zarurligi, ayniqsa bu o'yinlar bilan ishlar shug'ullannshiga

---

<sup>1</sup> [www.google.uz](http://www.google.uz) <<http://www.google.uz>>

e'tibor berish muhimligi hamda milliy o'yinlar bo'yicha Xalqaro festival o'tkazish vaqti kelganligi qayd qilish<sup>1</sup>.

Xullas, ming yilliklar davomida xalq o'yiilari ajdodlarimizning jismoniy, ma'naviy ruxiy va aqliy rivojlanishi uchun asosiy vosita bo'lib kelgan biroq keyingi asrda qator sabablarga ko'ra va avvalo shurolarning milliy an'analarga salbiy munosabati tufayli xalq o'yinlari e'tibordan chetda qola boshladi. Mustaqillik tufayli milliy qadriyatlar - milliy ong, tarixiy xotira azaliy ananalar, diniy etiqodlar, xalq ijodi qatorida milliy o'yinlar ham jadal tiklana boshladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasining jonbozligi tufayli jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda. «Xalq o'yinlari 1991, 1992, 1993-yillarda Forish). «Milliy sport va xalq o'yinlari» 1-2 olinpiadalari (1994, 1996 yillarda Forish), «Alpomish» 1 Respublika xalq o'yinlari festivali» (1998, Termiz), «To'maris» qizlar milliy festivali (1999-Jizzax). «Alpomish» 2 Respublika xalq o'yiilari festivali (2000. Farg'ona). «To'maris» 2 (Shahrisabz 2001) kabi yirik aijumanlar - O'zbek xalq o'yinlari tarixida yangi davrni boshlab bermoqda.<sup>1</sup>

O'zbek xalq o'yinlarining xalqaro nufuzi. O'zbekistonda tiklangan azaliy o'yinlar nafaqat sobiq ittifoq (Leningrad, Moskva shaharlari)dan kelgan mutaxassslarni, balki dunyoning boshqa burchaklari Amerika, Germaniya, Turkiya, Eron, Yaponiya, Gollandiya kabi mamlakazlardan tashrif buyurgan mexmonlarni ham o'ziga maftun qildi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng bahor kelib tabiat uyg'oiib go'zallashib ketishi muqarrar bo'lganidek xalq an'analariiga bo'lgan etibor ham jonlanib ketdi. Natijada xalq o'yinlari qatnashchilarining geografiyasi (doirasi) kengayib bordi. Tailand poytaxti Bangkokda bo'lib o'tgan Butun dunyo xalq o'yinlari festivalida O'zbekiston delegasiyasining qatnashishi o'zbek xalq o'yinlarining «jahon milliy o'yinlari» o'zining munosib o'rin olishiga imkon yaratdi.

---

<sup>1</sup> Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.-T.: O'qituvchi, 1996.-192 b.

<sup>1</sup> Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.-T.: O'qituvchi, 1996.-188 b.

Xalq o'yin-musobaqalarining bir turi - kurashning xalqaro ahamiyati o'tmoqda. O'zbek kurashi bo'yicha jahon birinchiligi o'tkazilmoqda qo'shni mamlakatlarda kurash federatsiyalari dunyoda kurashchilarning soni jalb qilish jumladan, xalq o'yinlari bo'yicha ilmiy-uslubiy manbaalar, o'quv qo'llanmalari va darsliklar yaratilishi lozimligi, milliy o'yinlarning muayyan turkum va turlari bo'yicha aloxida tuman, viloyat respublika musobaqalari (ot o'yinlari)ni o'tkazish darkorligi, axoliga xalq o'yinlari bilan shug'ullanish uchun qulay sharoitlar yaratish zarurligi, ayniqsa bu o'yinlar bilan yoshlar shug'ullanishiga e'tibor berish muhimligi hamda milliy o'yinlar bo'yicha xalqaro festival o'tkazish vaqti kelganligi qayd qilindi.

Xullas, ming yilliklar davomida xalq o'yinlari ajdodlarimizning jismoniy, ma'naviy ruxiy va aqliy rivojlanishi uchun asosiy vosita bo'lib kelgan biroq keyingi asrda qator sabablarga ko'ra va avvalo shurolarning milliy an'analarga salbiy munosabati tufayli xalq o'yinlari e'tibordan chetda qola boshladi Mustaqillik tufayli milliy qadriyatlar - milliy ong, tarixiy hotira azaliy ananalar, diniy etiqodlar xalq ijodidagi turli milliy o'yinlar ham jadal tiklana boshladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasining jonbozligi tufayli jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda. «Xalq o'yinlari » 1991-1992-1993 yillarda Forish) «Milliy sport va xalq o'yinlari» 1 va 2 olimpiadalari (1994-1996 yillarda Forish), «Alpomish» 1 Respublika xalq o'yinlari festivali» (1998, Termiz)), «To'maris» qizlar milliy festivali (1999 Jizzax) «Alpomish» 2 Respublika xalq o'yiilari festivali (2000 Farg'ona) «To'maris» 2 (Shahrisabz 2001) kabi yirik anjumanlar - O'zbek xalq o'yinlari tarixida yangi davrni boshlab bermoqda.

O'zbek xalq o'yinlarining xalqaro nufuzi. O'zbekistonda tiklangan azaliy o'yinlar nafaqat sobiq ittifoq (Leningrad, Moskva shaharlari)dan kelgan dunyoning boshqa burchaklari - Amerika, Germaniya, Turkiya, Eron, Yaponiya, Gollandiya kabi mamlakatlardan tashrif buyurgan mehmonlarni ham o'ziga maftun qildi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng bahor kelib tabiat uyg'onib go'zallashib ketishi muqarrar bo'lganidek xalq an'alariga bo'lgan etibor ham

jonlanib ketdi. Natijada xalq o‘yinlari qatnashchilarining doirasi kengayib bordi. Tailand poytaxti Bangkokda bo‘lib o‘tgan Butun dunyo xalq o‘yinlari festivalida O‘zbekiston delegatsiyasining qatnashishi o‘zbek xalq o‘yinlarining «jahon milliy o‘yinlari» o‘zining munosib o‘rin olishiga imkon yaratdi.

Xalq O‘yin-musobaqalarining biri kurashning xalqaro ahamiyati otmoqda. O‘zbek kurashi bo‘yicha jahon birinchiligi o‘tkazilmoqda qo‘shni mamlakatlarda kurash federatsiyalari dunyoda kurashchilarning soni ko‘paymoqda. Kurash - jahon olimpada o‘yinlari safidan munosib o‘rin olish arafasila turibdi.

Xalq o‘yinlarining yana bir turi - uloq (ko‘pkari)ning ham markaziy Osiyo xududida obruyi oshmoqda. An-anaviy tarzda turli joylar (Samarqand Navoiy viloyatlari)da o‘tkazilayotgan uloq musobaqalarida qo‘shni- qarindosh davlat chavandozlari ham faol qatnashmoqdalar.<sup>1</sup>

O‘zbek xalqi kurashi uloq kabi xalqaro darajaga chiqadigan o‘yinlar kam emas. Ularni chuqurroq o‘rganishimiz va targ‘ib qilishimiz zarur. Bu borada xalq o‘yinlarining (ko‘plab turlariga bag‘ishlangan olimpiada, festival, bayramlar o‘tkazish bilan bir qatorda). aniq bir turiga oid tuman, viloyat va respublika musobaqalarini o‘tkazish lozim. Ikkinchidan, respublikamizda o‘tadigan yirik musobaqalarga xalq o‘yinlaridan ham qo‘shimg‘imiz lozim. Afsuski, biz hozir faqat bir necha xalq o‘yin yoki musobaqasini, jumladan, «Kurash» «Ulok» «qiz quvdi» kabilardan foydalanmoqdamiz. Vaxolanki o‘zbek xalq tarixiy bisotida minglab rang-barang o‘yinlar bo‘lgan.

Xullas madaniy merosimizning biri bo‘lgan avlod-ajdodlarimiz asrlar mobaynida sog‘liq ato etib kelgan xalq o‘yinlarini chuqur o‘rganish. jonlantirish milliy qiyofamizni saqlash demakdir. Unutmaylik, xalq o‘yinlari ajdodlarimizning ming yilliklar davomida ulkan tarixiy-madaniy boyligidir. Ularni ko‘z qorachig‘idek asrash e‘zozlash va ulardan oqilona foydalanish muqaddas ish ekanligini unutmasligimiz kerak. Agar ana shunday qila olsak o‘zimizning ham, kelajak avlodlarimizning xalq tilida aytganda «jomu zann omon bo‘ladi.

---

<sup>1</sup> U.Qoraboyev “O‘zbek xalqi bayramlari”. “Fan” -T.: 2001 yil.

O'zbek kurashi 1992-yilda diyudo bo'yicha Kanadada o'tkazilgan jahon chempionatida va dyudo Jahon Federasiyasi birinchi bor targ'ib etila boshladi. Keyin Yaponiya, Xindiston, Buyuk Britaniya, Termizda ilk bor al-Xakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan musobaqada faqat mamlakatimiz polvonlari ishtirok erishganli kurash muxlislari va polvonlar uchun o'ta quvonchli boshlandi. Shu yili Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Rsspublikasi Prezident sovrini uchun al-hakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan O'zbek kurashi bo'yicha Xalqaro o'yin tashkil qilish to'g'risidagi qarori qabul qilingandi. Ikkinchi bor Termizda o'tkazilgan bu Xalqaro turnirda mashhur, kuragi yerga tegmagan pahlavonlar bilan birga Tojikiston, Turkmaniston Gruzuya, Janubiy Koreyadan kelgan polvonlar ham qatnashishdi. Yigit kishiga vatan tuprog'i madad beradi, deganlaridek bu turnirda ham Surxondaryoda o'tkazilgan Xalqaro sport musobatsqalarida o'zbek kurashi to'g'risida malumotlar berildi. Bizning milliy kurash chet el mutaxassislarida katta qiziqish uyg'otdi polvon Rustam Ergashev mutloq g'oliblik martabasiga ko'tarilishi.

Xakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan turnirning chin ma'nodagn xalqaro maqomi va asl nufuzi uchinchn turnirda yanada yaqqol iamoyon bo'ldi. Unda dunyoning turli davlatlari va mamlakatimiz viloyatlaridan kelgan 200 dan ortiq polvon turli toifasida bel olishishdi.

6-7 sentyabrda Toshkentda o'zbek kurash bo'yicha O'zbekiston Prezidenti Kubugi uchun Birinchi Xalqaro turniri o'tkazildi. Unda 20 dan ortiq mamlakat sportchilari qatnashdi. O'zbek kurashi butun sport olamda sportning yangi turi sifatida tan olinishi munosabati bilan Prezident Islom Karimov 1999-yil 1-fevralda Kurashni qo'llab-quvvatlash to'g'risida farmon chiqardi. Bu farmon kurashning O'zbekistondagina emas, balki butun dunyoda yanada ko'p tarqalishiga buyriq berildi.

1999-yilning 1-mayi O'zbek sportchilarining emas balki butun o'zbek xalqining xotrasida saqlanib qoladi. Toshkentda kurash bo'yicha birinchi jahon chempionati ochildi.

Kurash bo'yicha birinchi jahon chempionatida duiyoning qariyb 50 mamlakatidan kelgan sportchilar qatnashdi. Gilamga O'zbekiston AQSH Kanada, Braziliya, Chili Janubiy Afrika Respublikasi, Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya, Turkiya, Niderlandiya, Latviya, Eron, Kongo kabi mamlakat polvonlari tushdilar. Shu paytgacha sportning biron turi bo'yicha o'tkazilgan jahon chempionatlarida shunchalik ko'p mamlakat vakillari qagnashmagan edi. Yurtdoshlarimiz T. Muhammad (90 kg dan ortiq vazn toifasida K. Murolov (90 kg gacha vazn toifasida), A. Qurbonov (73 kg gacha vazn toifasida) o'zbekcha kurash bo'yicha birinchi jahon chempioni bo'ldilar.

1999-yil 2-mayda JAR sport majmuida g'oliblarni sharaflash va chemponatning tantanali yopilish marosimi bo'lib o'tdi.

Har ikki yilda Termizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun al-hakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan O'zbek kurashi bo'yicha Xalqaro turnir o'tkazilnshi an'anapz kirgan. Unda Respublikamiz va jahonning ko'plab davlatidan 150 nafar polvon qatnashdi. Turnirga respublika va xalqaro kurash Surxondaryo viloyat Xokimligi turnirning tashkiliy qo'mitasi qizg'in tayyorgarlik ko'rdi. Joylarda kurashning saralash bosqichi o'tkazilib, umidli polvonlar kashf etildi. Turnir O'tkaziladigan bosh maydon - «Alpomish» stadionida hakamlar, polvonlar va tomoshabinlar uchun barcha sharoit yaratildi.

O'zbek kurashining jahon bo'ylab tanilishi va tan olinishida xukumatimiz qarori bilan har ikki yilda bir marsh o'tkazilib kelinayotgan ushbu xalqaro turnirning aloxida o'rni bor. U ma'lum ma'noda kurashning dunyo bo'yicha ommalashuviga asos bo'ldi 1999-yilning kuzida Termizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun o'ttan kurash bo'yicha 2-xalqaro turnir busobaqada dunyoning 30 dan ortiq mamlakatidan kelgan polvonlar ishtirok etib. O'zbek kurashi dunyo bo'yicha tanilib borayotganligini yana bir bor isbotlashgan edi. Ushbu turnirning ochilish marosimida xorijlik mehmonlar o'zbek kurashining obrusi kun sayin oshib. dunyo sportchilari o'zbekcha atamalarni qiziqib



o'rganayogganligini, bu kurash uchinchi ming yillikda dunyo xalqlarining eng sevimli sport turlaridan biri bo'lib aolishini o'z so'zlarida ta'kidlagan edi<sup>1</sup>.

O'sha 2-xalqaro turnirda yaponiyalik Xiroshi Kamimoto, O'zbekistonlik Toshtemir Muhammadiyev Botir Xasanov, Polshalik Pavel Malavanets, Turkmanistonlnk Chorn Barotov, Qozog'istonlik Doston Primqulov kabi polvonlarning o'ziga xos kurash uslubi tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lganli» 1999-yilning 3-4 aprel kunlari o'tkazilgani an'anaviy 4-xalqaro turnir xalqaro kurash assoiy tashabbusi bilan Osiyoning ochiq chempionata deb e'lon qilindi. Ushbu turnirning final bahslarida hamyurtlarimiz Akobir Qurbonov bilan Maxtumquli Maxmudov, Bahrom Avazov va Shuhrat Xo'jayev, Toshtemir Muhammadiyev bilan Erali Mamarasulovning kurashlari tomoshabinlar yodidan ko'tarilmasa kerak, albatga. Shu yili 7 sentyabr kuni o'zbek matbuotida Anglnyadan kelgan xushxabar e'lon qilindi. O'zbek kurashi xalqaro uyushmasi tashkil etilgan kunning ikki yilligini nishonlash yuzasidan Britaniya kurash uyushmasida 1-oktyabrda barcha yoshdagi erkak va ayollar o'rtasida kurash turniri o'tkazishga qaror qildi. Turnir London Bedford shaharchasida o'tkazildi.

Kurash musobaqalarining barchasi bayramona turda o'tadi. Uning ochilish marosimi ham yopilish marosimi ham o'yin-kulgi, qo'shio' va rao'slardan iborat konsert va shodiyona tadbirlar asosida bo'lali. O'zbek kurashining xalqaro o'yin maqomini olishi xalqimiz zakovati, topqirligi va dunyo xalqlari ko'nglini ola bilish saloxiyatining yorqin misoli sifatida qaraladi.

---

<sup>1</sup> U.Qoraboyev "O'zbek xalqi bayramlari". "Fan" -T.: 2001 yil.

## **1.2. Barkamol shaxsni tarbiyalashda madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiy va sport tadbirlarining o'рни**

Jismoniy tarbiya va sport - jamiyat umumiy madaniyatining ajralmas qismi, ijtimoiy hayotning tarixan tarkib topgan, mustaqil va o'ziga xos xodisasi. Shuning uchun jismoniy tarbiya nazariyasi hamda amaliyotini rivojlantirish umuman jamiyati ijtimoiy-madaniy faoliyati qaror topishi jarayonlaridan ajratilmagan va ajratilmaydi.

Yosh avlodni milliy mafkura negizida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash uchun jismoniy va ruhiy sog'lomlikni muhofaza qilish hamda mustaxkamlash, sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirish taqozo etiladi.

Jismoniy tarbiyadan to'g'ri foydalanishning eng muhim natijasi insonni jismoniy kamol toptirishning majmu ko'rsatkichlariga erishish bo'lib, u individual jismoniy iste'dod rivojlanishining yuqori darajasini ifodalaydi, shaxsni rivojlantirish hamda uzoq yillar sog'liqni saqlash qonuniyatlariga muvofiq keladi. Sog'lom, yuksak darajada ma'lumotli va fidokor yoshlari bo'lgan xalq esa o'zining buyuk kelajagini muqarrar ta'minlaydi. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligi, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, ularni rivojlantirish har tomonlama uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi paytda har bir maktab o'quvchisi shaxsini moslashishga, ijtimoiylashuvga yo'naltirish bolalarga hamda o'smirlarga jismoniy tarbiyani o'rgatishning xususiyatidir. Bunday vazifa ijtimoiy-madaniy muassasalarning bo'sh vaqtda ta'lim, sport-sog'lomlashtirish loyixalari va dasturlarini fikrlashni rivojlaitiradigan, bolalar, o'smirlar, kattalarda o'zaro munosabatlar amaliy tajribasini shakllantiradigan, kishilarni jismoniy va ma'naviy kamol toptiradigan interaktiv metodlarni qo'llashga qayta yo'naltirishni taqozo etadi. Bu jarayonda ko'ngilochar o'yinlar, sog'lomlashtiruvchi, o'rgatuvchi, ommaviy-tomoshaviy va boshqa zamonaviy ijtimoiy-madaniy texnologiyalar kompleksidan foydalanishga muhim o'rin ajratiladi. Sport jismoniy tarbiyaning tarkibiy qismi va ijtimoiy-

madaniy faoliyat turidir. Yoshlarni xadrbiy-vatanparvarlik ro'xida tarbiyalashda sportning o'rni beqiyosdir.

Sportning zamonaviy turlari yoshlar muhitida giyohvand moddalar va alkohol quliga aylanishning oldini oluvchi samarali vosita hisoblanadi.

Bolalar va o'smirlarni jismoniy tarbiyalashni shakllantirishda maktab, oila hamda bo'sh vaqtni madaniy o'tkazish bilan shug'ullanuvchi muassasalar o'ziga xos imkoniyatlarga ega. Maktab uchun bu muayyan maqsadga erishishga qaratilgan, didaktika qoidalariga muvofiq ko'rilgan, muayyan ma'no-mazmunga ega, shakllar, metodlar va vositalar tizimidan foydalanuvchi ta'lim tizimidir.

Ijtimoiy-madaniy hamda bo'sh vaqtni madaniy o'tkazish bilan shug'ullanuvchi muassasalar ko'ngilli ishtirok etishlari va mashg'ulotlarning ko'proq rang-barangligi (musobaqalar, mashqlar, bayramlar) tufayli bolalar hamda o'smirlarni jalb etishga, ijobiy intilishlarni va mashg'ulotlarga barqaror qiziqishni shakllantirishga ko'maklashadi.

Hozirgi paytda har qanday ijtimoiy-madaniy muxit (bo'sh vaqt, ta'lim, muloqot muxiti va x.k.) singari, jismoniy tarbiya va sport sohasi ham jamiyatda hamda kishilar ongida sodir bo'layotgan o'zgarishlarga doim va hamda yerda ham tayyor emas, ushbu muxitni tartibga solishga, uni maqsadga muvofiq tashkil qilishga extiyoj muntazam seziladi. Bunday ahvol axolining jismoniy tarbiyasi uchun qulay muxit yaratish bir qator ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogik, moddiy-texnikaviy masalalarni hal qilishni taqozo etishi haqida xulosa chiqarish uchun asos bo'ladi<sup>1</sup>.

Ijtimoiy-madaniy muxit tashkil qilinar va rivojlantirilar ekan, uning asosiy bug'inlari:

maktab, oila, bo'sh vaqtni madaniy o'tkazish bilan shug'ullanuvchi hamda jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish muassasalarining imkoniyatidan eng ko'p darajada foydalanish;

---

<sup>1</sup> A.Umarov. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot: Ilmiy ishlar to'plami .-T.: O'zbekiston, 1997.-199 b.

Jismoniy tarbiya tashkilotchisi bo'lgan pedagogning bo'sh vaqt borasidagi mahoratini oshirish, ijtimoiy-madaniy faoliyat jarayonining o'zini uyushtirish hamda uni ruyobga chiqarish uchun shart-sharoit, omillar va imkoniyatlar majmuini yaratish bilan bog'liq muammolarni etish zarur.

Jismoniy tarbiyaning ahamiyati, uni berish yo'llari va shakllari, maktabda, oilada va jamoatchilik ta'sirida jismoniy tarbiya berish haqida bilim, tushuncha va ko'nikmalar hosil qiladi. O'zining jismoniy kamoloti haqida qayg'urishga o'rgatish.

1. Jismoniy tarbiyaning shaxs kamolotidagi ahamiyatini aytib beradi.
2. Jismoniy tarbiyaga davlat tomonidan berilayotgan e'tiborini izohlaydi.
3. Jismoniy tarbiya bo'yicha olgan bilimlaridan kundalik hayotida foydalaniladi.
4. Maktabda, oila va jamoatchilik asosida jismoniy tarbiya berishni tekshirib ko'radi.
5. O'zining shaxsiy kun tartibi va jismoniy mashg'ulotlari bilan shug'ullanishni loyhalashtiradi.
6. Jismoniy kamoloti turlicha bo'lgan yoshlarni jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishlari taqqoslanadi.

Jismoniy tarbiya inson kamolotida alohida ahamiyatga ega bo'lib, tananing to'g'ri o'sishi, kuchli, chaqqon, epchil, chidamli va amaliyot har doim mustahkam irodali bo'lishini ta'minlaydi.

Ulug' alloma Abu Ali Ibn Sino tib ilmiy asoslarini yaratib, unda nazariya va amaliyot har doim mustahkam alohida bo'lishini ta'kidlagan. Tib amaliyotida sog'lom tanning xususiyatlarini bilish va sog'liqni eng zarur qonuniyat deb hisoblagan. Uning fikricha har bir kishi o'zining sog'lig'i haqida o'zi qayg'urishi, jismoniy mashq va mehnat bilan shug'ullanishi zarur. Jismoniy mashg'ulot odamlarni orntiqcha toliqtirmasligi, shu bilan birga doimiy shug'ullanishi maqsadga muvofiq bo'lishini o'qtirgan.

Abu Ali Ibn Sino o'zidan oldingi olimlarning ta'limotini davom ettirib, jismoniy tarbiyaning inson hayotidagi ahamiyatini ilmiy asoslashga harakat qiladi.

Sharqda sogʻlom turmush tarzi toʻgʻrisidagi tasavvurlar uzoq oʻtmishga borib taqaladi. Oʻrta asrda sharqda yetuk insonni tarbiyalashga qaratilgan harakatlarni Farobiy oʻzining qator asarlarida umulashtiradi. Olim oʻz asarlarida qalb holatini moʻtadil saqlash uchun sogʻlom avlod zarur deb taʼkidlaydi.

Forobiyning fikricha, jismoniy tarbiya shaxsni har tomonlama rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi<sup>1</sup>.

Hozirgi kunda maktab oldiga qoʻyilgan muhim vazifalardan biri oʻquvchilarni jismoniy sogʻlom boʻlib oʻsishga va oʻz sogʻligʻini saqlashga oʻrgatishdir. Mustaqil respublikamizda sogʻliqni saqlash, jamiyatimizdagi sogʻlom avlod yetishtirish uchun qator ishlar amalga oshirilmoqda. Shulardan biri «Sogʻlom avlod uchun» ordening taʼsis etilishidir.

Ayni texnika yuksalishi asri insondan harakatni tezkorlik bilan mohirona boshqara olishni, puxta jismoniy tayyorgarlikni talab etmoqda. Bulardan barchasiga asos esa maktab yoshidan boshlab qoʻyiladi.

Maktab oʻkuvchilariga jismoniy tarbiya berish uchun, jismoniy tarbiya boʻyicha ishlarni shunday tashkil qilish kerakki, oʻkuvchilar oʻzlaridagi mehnatsevarlik, jasurlik, tashabbuskorlik hislatlarini toʻla namoyish qila olish hamda harakat oʻyinlari va jismoniy mashqlarni yanada sevib, oʻz yutuqlarini yanada takomillashtirishga ega boʻlsalar.

Bulardan tashqari, zarur boʻlgan gigiyenik sharoitlar yaratish, bolalarni yetarli darajada ochiq havoda boʻlishini taʼminlash, oʻz vaqtida ovqatlantirishni tashkil etish zarurdir.

Jismoniy tarbiya boʻyicha mashgʻulotlar ochiq havoda, zalda yoki shu maqsadga muvofiq ajratilgan xonalarda oʻtkaziladi.

Jismoniy tarbiya darslarida oʻkuvchilar albatta maxsus kiyimda boʻlishi kerak. Jismoniy tarbiya darslarida hamma oʻkuvchilar ishtirok etishlari kerak. Jismoniy tarbiya darslarida, sinfdan tashqari mashgʻulotlarida va oʻkuvchilar kun tartibda jismoniy tarbiya berishning asosiy mazmuni 1-9 sinflar uchun chiqarilgan

---

<sup>1</sup> Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimai /Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur; Mas'ul muharrir H.Karomatov.-T.: Toshkent Islom universiteti nashriyoti, 2001.-617 b.

maxsus dasturda belgilab berilgan. O'kuvchilarga jismoniy tarbiya berishda o'qituvchi avvalo o'z ishini yaxshi bilishi va sevishi kerak. U har tomonlama yetuk pedagog va sport texnikasi mahoratiga ega bo'lishi kerak. Chunki o'qituvchining pedagogik mahorati qanchalik yuqori va jismoniy tarbiya bo'yicha maxsus bilimlar doirasi keng bo'lsa, unda tarbiya masalalarini hal etish imkoni shuncha ko'p bo'lishi sir emas albatta. O'qituvchi, tarbiyachi umumiy jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida o'kuvchilarning sog'ligi, yoshi va jismoniy tayyorgarligini xis eta olish zarur. O'yin va jismoniy mashqlar mashg'ulotlarida sinflar va guruhlar yoshiga qarab tinglashni maqsadga muvofiq. Masalan: 1-2sinflar(6-7 yoshli) 3-4 sinf (8-9yosh) o'quvchilarini birlashtirish mumkin. Sog'lomligiga qarab asosiy va tayyorlov guruhidagi mashg'ulotlariga hech qanday cheklanishsiz kiritiladi. Tarbiyachining umumiy nazorati ostida o'kuvchilar jismoniy tarbiyadan uy vazifalarini muntazam bajarishlari darslarni o'rgatadigan harakat malakalarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam beradi. Tarbiyachi 1-4 sinf o'kuvchilari bilan o'tkaziladigan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining mazmuniga maktabning samoviy sport kalendaridagi tarbiyalarini kiritish mumkin.

Mashg'ulotni kunida kuzatib borish va ziyrakni talab qiluvchi o'yinlarni o'ynatish mumkin. Jismoniy tarbiyadan sindan tashqari ishlarning asosiy tashkiliy ishlardan biri jismoniy tarbiya to'garagidir. Maktabda umum jismoniy tarbiya to'garagidan tashqari sport turlari bo'yicha to'garaklar tashkil etilishi mumkin. Bunday sport turlarining asosiy yo'nalishi o'kuvchilarning jismoniy tayyorgarligiga har xil gimnastik mashqlar, o'yinlar, yengil atletika, qishda esa harakatli o'yinlarni ajratish kerak.

Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga qiziqqan va ba'zi yutuqlarni qulga kiritgan o'kuvchilarni sport maktabiga yo'llash mumkin. Jismoniy mashqlar o'smirlar tanasida moddalar almashinuvini ta'minlaydi. Ularning aqliy va ruhiy qobiliyatini oshiradi, ruhini tetik, tanasini salomat, chidamli va baquvvat bo'ladi. O'rta maktab o'kuvchilari gimnastika bilan shug'ullanishlari, yengil atletika bilan shug'ullanishlari zarur. Mustaqil O'zbekistonimizda sport sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bolalar va o'smirlarni jismoniy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash

davlat dasturining asosiy mazmuniga aylanmoqda. Chunki, kelajak avlodlar taqdiri bugungi sogʻlom kishilarimizning ma'naviy va jismoniy barkamolligi bilan bogʻliqdir. Bu borada mamlakatimizda yosh avlodning jismoniy va ma'naviy sogʻlomligini mustahkamlash, farzandlarimizning sogʻlom turmush tarzini ta'minlash, ularda sportga muhabbat tuygʻularini kuchaytirish yuzasidan keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bolalar sportining rivoji kelajak yoshlarning jismonan, ruhan sogʻlom tarbiyalanishining garovidir. Bu esa farzandlarimizning kelajakda har qanday zamonaviy texnologiyalarga asoslangan bilimlarni oʻzlashtirishda qarshiliklarga uchramasligini ta'minlaydi.

Chunki biz insoniyat tarixida unutilmas burilish pallasini ilm-fan, texnika va texnologiya taraqqiy etgan XXI-asrda yashamoqdamiz, qolaversa, yurtimizda xuquqiy demokratik davlat hamda fuqarolik jamiyatni barpo etish jarayoni kechmoqda. Dunyo hamjamiyati bilan turli yoʻnalishlarda hamkorlik qilish oldimizda turgan iqtisodiy va ijtimoiy siyosiy masalalarni hal etish hamda jamiyatimizni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan takomillashtirish orqali xalqimiz faravonligini ta'minlash, fuqarolarimizning, oila va avlodning har tomonlama barkamol (ham jismonan, ham ma'naviy jihatdan sogʻlom), dono, ilgʻor fikrli va zakovatli boʻlishiga intilmoqdamiz. Shu oʻrinda yoshlar va oʻsmirlar oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini yaratishda jismoniy tarbiya va sportni yuksakligini ta'kidlash joizdir<sup>1</sup>.

Koʻp yillik tarixga ega boʻlgan turon zaminida yashab kelayotgan ajdodlarimiz ota-bobolarimiz ham asrlar davomida jismoniy tarbiya sport oʻyinlari bilan shugʻullanib kelishgan. Buni biz xalq ogʻzaki ijodida «Alpomish», «Goʻr oʻgʻli», «Avazbek» dostonlaridan bilamiz. Shu bois ajdodlarimiz ham jismonan baquvvat, ruhan sogʻlom farzandlarni oʻstirishgan va ulardan xalq qahramonlari mif va afsonalar yetishib chiqqan. Bugungi kunda ham yoshlarimizni shunday yetuk shaxs ya'ni komil inson tarbiyasida jismoniy tarbiya va sportning oʻrni xususida izlanishlar olib borilmoqda. Ta'lim tizimida, maktabgacha ta'lim

---

<sup>1</sup> [www.gov.uz](http://www.gov.uz) <<http://www.gov.uz>>

muassasalarida, o'rtta maxsus maktablarida bu borada samarali faoliyatlar olib borilmoqda.

Bugungi kun mutaxassislarning ilmiy taxlillari natijasida nazariy-tashkiliy bilim va amaliyotni o'zlashtirish bosqichlarini, quyidagi texnologik tartibda amalga oshirilishi tafsiya etilmoqda.

1. Har bir odamning o'z salomatligini mustahkamlashida shaxsan o'zi ma'sul ekanligini jismoniy madaniyat ta'limi orqali anglab olishini ta'minlash.

2. Hozirgi zamonda ekalogik buzilishlar, tashqi muhitning ifloslanishi, tabiiy va texnologik halokatlarning o'sishi, inson jismoniy salomatligining oldiga yangicha talablarni qo'yayotgani haqida bilimga ega bo'layotganini ta'minlash.

3. Jismoniy tarbiya va sportni mamlakatda rivojlantirish, inson salomatligini yanada mustahkamlashga qaratilgan davlat rahbariyati tomonidan qabul qilinayotgan qonun, farmon, qarorlardan o'z vaqtida xabardor bo'lish, ularga qo'yilayotgan talablarni mamlakatda istiqomat qilayotgan har bir fuqaro o'zi uchun belgilab berilgan tegishli ko'rsatmalarni bajarishni ta'minlash o'zining burchi ekanligini bilish.

4. Ma'lumki, har bir inson uch xil oziqlanishga doimo muhtoj. Bu moddiy, ma'naviy va jismoniy oziqlanishlardir. Shulardan jismoniy oziqlanishning har bir kishi o'ziga kerakli darajasini o'zining kundalik xayotiy tajribasidan kelib chiqib amalga oshirishni ta'minlovchi bilimga ega bo'lish.

5. Har bir inson o'zining jismoniy imkoniyatlarini bilishi, uning sport mashqi va musobaqalari sharoitida yuksak natijani namoyish etishga, tayyrlashga oid ilmiy-nazariy-amaliy bilimlarga ega bo'lish.

6. Har bir kishi o'zining turmush-tarzi sharoitida qaysi jismoniy harakat amallaridan qanday foydalanganda o'zini jismoniy rivoji va tayyorgarligiga qay darajada samara berishi haqidagi bilim va tajribalariga ega bo'lish.

7. Har bir odam o'zi yashayotgan xududida viloyat, mamlakat, qit'a, jahon miqyosidagi jismoniy tarbiya va sport haqidagi barcha tegishli ma'lumotlardan xabardor bo'lib turishi jismoniy madaniyat ta'limi texnologiyasini yuqoridagi tartibda amalga oshirish, odamlarning jismoniy madaniyatini shakllantirishda



asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bolani psixik va jismoniy rivojlanishida go'daklikdan maktabgacha bo'lgan davri eng muhim davr bo'lib hisoblanadi. Bola hayotining dastlabki 7 yili barcha organ va tizimlarning intensiv rivojlanishi bilan karakterlanadi. Bola naslga xos biologik xususiyatlar, jumladan, asosiy nerv jarayonlarining tipologik xususiyatlari (kuch, muvozanatlilik va harakatchanlik) bilan ham tug'iladi. Biroq xususiyatlar faqat jismoniy va psixik rivojlanishlarning asosini tashkil etadi, bola hayotining birinchi oylaridagi belgilovchi omil esa tashqi muhit va bola tarbiyasi hisoblanadi. Jismoniy tarbiya nazariyasi ijtimoiy, tabiiy va pedagogik fanlar bilan bog'liqdir. Jismoniy tarbiya va sport hamisha jamiyat hayotining ajralmas bir qismi bo'lib kelgan. O'rta Osiyoning mashhur olimi, Abu Ali ibn Sino 1002-1011 yillarda «Tozalik haqida risola» nomli asar yozgan. Bu risolada jismoniy harakatga rioya etish, kishilarni salomat bo'lishi va jismonan baquvvat bo'lishlarini ta'minlaydi.

Jismoniy tarbiya nazariyasining ilmiy-tabiiy asosi (anatomiya, fiziologiya, gigiyena, bioximiya, biomexanika...)dan tarkib topadi. I.M.Sechenov va I.V.Pavlov ta'limotlari, shuningdek harakat ko'nikmalarini shakllantirish va jismoniy sifatlarni rivojlantirish, ta'lim va tarbiya jarayonini to'g'ri qurish qonuniyatlarini tushunish imkonini beradigan oliy nerv faoliyati haqidagi zamonaviy tadqiqotlar muhim o'rin egallaydi<sup>1</sup>.

Jismoniy tarbiya madaniyat muassaslari faoliyatining bir qismi hisoblanadi va u madaniyat va tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Jismoniy tarbiya nazariyasi ixtisoslashgan fan predmetlarining butun bir kompleksi bilan aloqadordir. Ularning bir butun turi gumanitar karakterda (jismoniy tarbiyaning umumiy nazariyasi, umumiy pedagogika maktabgacha tarbiya pedagogikasi, jismoniy tarbiya va sport psixologiyasi, bolalar psixologiyasi) bo'lib, jismoniy tarbiyani tashkil etish va rivojlantirishning ijtimoiy qonuniyatlarini, shuningdek jismoniy mashqlarning kishi (bola) psixikasiga ta'sirini, pedagogik ta'sir etishning vositalari, shakl va metodlarini qo'llash qonunlarini o'rganadi. Hozirgacha madaniyat muassaslarida mavjud bo'lgan sportga oid moddiy texnika bazasidagi imkoniyatlardan to'laqonli

---

<sup>1</sup> Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot: Ilmiy ishlar to'plami /Muharrir A.Umarov.-T.: O'zbekiston, 1997.

foydalanib kelinadi. Madaniyat muassasasida sportga bo'lgan talantli o'quvchilar bilan alohida suhbatlar o'tkazilib, ularga o'zining yo'nalishlari bo'yicha maslahatlar berib kelinadi, hamda har bir o'quvchiga shu asnoda mashqlar belgilanadi. Bundan tashqari jismoniy tarbiya bo'yicha tashkil etilgan Futbol, Voleybol, Basketbol to'garaklariga ham o'quvchilarni doimiy ravishda jalb qilib kelinadi. Jismoniy tarbiya to'garaklarida o'zlarini qobiliyatlarini namoyon etib mashqlar uchun mo'ljallangan "Turnik", "Brus" "Kanat" lardagi baqquvvat o'g'lonlarni ko'rib kishi zavqlanadi. Ayniqsa madaniyat muassasida tashkil etilgan futbol to'garagi o'quvchilari doimo guruhlararo musobaqalarni tashkil qilishlari qolgan o'quvchilarni sportga bo'lgan qiziqishlarini o'yg'otishlari turgan gap.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning shunday yo'liga qadam bosdiki, bu yo'lda katta muvaffaqiyatlarga erishish jamiyatning barcha a'zolaridan bor imkoniyatlarini ishga solishni talab etadi. Yosh avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va an'analar yangi ma'nokasb eta boshladi. Barkamol, har jihatdan uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirish barcha zamonlarda ham xalqimizning eng ezgu orzusi bo'lgan. Jismonan sog'lom, turli ilmlarni yuksak darajada egallagan xalq o'zi uchun munosib kelajakni qura oladi. Jismoniy tarbiya va sport insonni jismonan rivojlantirish, uning salomatligini mustahkamlash va saqlash vositasi, kishilarning o'zaro muloqoti hamda ijtimoiy faolligini namoyon etuvchi soha bo'libgina qolmay, ularning jamiyatdagi mavqei, hurmat-e'tibori, mehnat faoliyati, aqliy va ma'naviy xususiyatlari tizimi, go'zallik tuyg'usi, qadriyatlarga munosabati kabi jihatlarga chuqur ta'sir ko'rsatuvchi omildir. Jismoniy tarbiya va sport jamiyatning har bir a'zosi uchun rivojlanish, hayotda munosib o'rin egallash va o'z "men"ini namoyon etishning yangi kengliklarini ochib beradi, g'alabalardan quvonishga, mag'lubiyatni munosib qarshi olib, rang-barang hissiyotlarni boshdan kechirishga majbur etadi, insonning imkoniyatlari naqadar cheksiz ekanligidan faxrlanishga undaydi.

Mamlakatimizda mazkur tushunchalar ma'naviy boylik, axloqiy soflik va jismoniy barkamollikni o'zida mutanosib ravishda mujassam etgan insonni tarbiyalashning eng muhim vositalaridan biri sifatida qabul qilinadi. Jismoniy

tarbiya bilan shug'ullanar ekan, odam o'z tanasini sog'lomlashtiradi, uni barkamollikka yo'naltiradi, o'z harakat faoliyatlarini boshqarish qobiliyatini o'stiradi. Lekin bu hali hammasi emas. Ayniqsa, sport mashg'ulotlari, musobaqalar jarayonida uning irodasi, fe'l-atvori chiniqadi, o'z hissiyotlarini jilovlashga, turli murakkab vaziyatlarda tez va to'g'ri qaror chiqarishga, oqilona tavakkal qilishga o'rganadi. Sportchi o'rtoqlari bilan birga shug'ullanadi, raqiblar bilan bellashadi va shu tariqa odamlar bilan muloqot qilish, ularni tushunish tajribasini egallaydi. Sport xuddi rassomchilik, musiqa va raqs san'ati, haykaltaroshlik singari insonning barkamolligi hayotdagi eng ajoyib qadriyat ekanligiga kishilarni ishontiradi. Sport, xususan, musobaqa faoliyati shaxsga ta'sir ko'rsatish nuqtai nazaridan juda jiddiy va murakkab. U nihoyatda katta jismoniy kuch-quvvatni talab etadi. Keskin raqobat sharoitida har bir odamning shaxsi, fe'l-atvoriga xos xususiyatlari yuzaga chiqadi.

Shu yerda hissiyotlar, iroda kuchi bor bo'yi bilan namoyon bo'ladi. Aynan qiyinchiliklar odamning barcha yashirin fazilatlarini, shuningdek, nuqsonlarini ham ochiq-oydin ko'rsatadi. Demak, sport insonning o'z-o'zini anglashi, o'z-o'zini namoyon etishi uchun qudratli vosita bo'lib maydonga chiqadi. Sportda takomillashib borar ekan, inson har tomonlama mukammallashadi. O'zining sportchi sifatidagi yuqori bahosini anglagan odam, odatda, bu bahoni jamiyatning bir a'zosi bo'lmish o'z shaxsiga ham ko'chirishni istaydi. Sport tufayli kishilarning atrofdagilar bilan muomala qilish shakllari kengayib, boyib boradi. Sport tadbirlari turli millat vakillarining o'zaro yaqinlashuviga, do'stlik, o'rtoqlik munosabatlarining mustahkamlanishiga yordam beradi. Shu tariqa milliy madaniyatlar yaqinlashib, har bir xalqning ma'naviy-axloqiy rivoji jadallashadi. Sportchilarning o'zaro hamkorligi, birdamligi millatlararo turli salbiy kayfiyatlarning yuzaga kelishiga to'sqinlik qiladi. Jismoniy tarbiya va sport yoshlarning bo'sh vaqtlarini oqilona tashkil etish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish uchun sharoit yaratib, mehnat faoliyatining samarali, unumdor bo'lishiga imkon beradi, aqliy qobiliyatlarni o'stiradi. Yildan-yilga sport murakkabroq, aqlliroq, jozibaliroq bo'lib, tobora ko'proq kishilarning unga bo'lgan qiziqishlari

ortib boryapti. Demak, jismoniy tarbiya va sportning inson shaxsini shakllantirishga qo'shayotgan hissasi borgan sari kuchaymoqda. Bizning shashti baland, shiddatkor davrimiz sporti zamonning xuddi shu sifatlarini o'zida mujassam etib, uning ziddiyatlarga boy xususiyatlarini, serma'no, serqirra muammolarini o'zida aks ettirayotibdi, uning ramziga aylanib borayotibdi<sup>1</sup>.

O'tgan yillar mobaynida respublikamizda sog'lom va barkamol, mard va jasur, bilimli va dono, vatanparvar avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishning yangi tizimi yaratildi. Bu tizimda nafaqat ma'naviy yetuk, bilimdon va zukko shu bilan birga sport maydonlarida toblangan, qiyinchiliklarni yengishga qodir, irodali va e'tiqodli, o'z millati, o'z halqi uchun jonini fido qiladigan, uning faxri va g'ururiga aylana oladigan sog'lom avlodni tarbiyalash yagona maqsaddir.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida sog'lom avlodni tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bilan bir qatorda ommaviy sport o'yinlari o'tkazilishining o'ziga xos o'rni va ahamiyati kattadir.

O'tgan yillar mobaynida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy va ommaviy sport tadbirlari ishtirokchilarining soni yildan-yilga ortib borganligi ham akademik litsey va kasb-hunar kollejlari jamiyatda o'z o'rnini topib olayotganligidan dalolat beradi. Respublika miqyosida tizimda har uch yilda bir marotaba, aprel-may oylarida «Barkamol avlod» sport musobaqalari, har ikki yilda bir marotaba, yanvar-may oylarida «Shunqorlar» harbiy sport musobaqalari, har yili fevral-aprel oylarida «Sport-salomatlik garovi» shiori ostida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida tahsil olayotgan o'quvchi-qizlar spartakiadasini o'tkazish yo'lga qo'yilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimiz aholisi sportning 60 dan ortiq turlari bilan shug'ullanayotgan bo'lsalar, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi muassasalarida 445585 nafar o'quvchi yoshlar sportning 50 dan ortiq turlari bilan muntazam shug'ullanib kelmoqdalar<sup>1</sup>.

Sog'lom avlodni tarbiyalashda sportning o'ziga xos o'rni bor. Chunki, sport insonni jismonan baquvvat, kuchli va irodali etib tarbiyalaydi. Sport o'smirning

---

<sup>1</sup> Murod Malik. O'zbek qadriyatlarini. 1-kitob.-T.: Cho'lpon, 1995.-271

nafaqat jismoniy jihatdan shakllanishiga, balki, ruhiy barkamol bo'lib takomillashuviga xizmat qiladi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimidagi o'quvchi yoshlar hayotida sport musobaqalari bilan birgalikda ularning dunyoqarashlarini shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlarning o'rnini benihoya katta. Xususan, turli davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda tashkil etilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuvlar, davra suhbatlari, muloqotlar, she'riyat kechalari, ilmiy-amaliy, ilmiy-nazariy konferensiyalar, ko'rik-tanlovlar shular jumlasidandir. Ayniqsa, o'quvchi-yoshlar o'rtasida muntazam o'tkazib kelinayotgan «Konstitutsiya-baxtimiz poydevori», «Siz qonunni bilasizmi?», «Siz tarixni bilasizmi?», «Eng iqtidorli yosh iste'molchi», «Inson va jamiyat», «Barhayot an'analar», «Kelajak ovozi», «Eng namunali o'quvchilar turar joyi», «Eng yaxshi axborot guruhi», «O'zbekiston yosh rassomlar nigohida», «Amaliy san'at talaba-yoshlar ijodida» kabi ko'rik-tanlovlar, «Jiddiy o'yin» telemusobaqasi, «O'yla, izla, top!» intellektual shou-bellashuvi, «Biz O'zbekiston farzandlarimiz», «O'zbekning g'ururi tog'lardan baland» va «Biz hech kimdan kam emasmiz va hech qachon kam bo'lmaymiz» mavzularida o'quvchilar ijodiy ishlari tanlovlarining tashkil etilishi o'n minglab o'quvchi-yoshlar dunyoqarashini shakllanishida ma'naviy-ma'rifiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Xullas o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi rivojlanish jarayonini o'tamoqda. Bu jarayonda oila-mahalla-jamoatchilik hamkorligida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi millatimiz tayanchi bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalab, yetishtirishda ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimizning istiqlolning ilk yillarida mamlakatimiz uchun unchalar oson bo'lmagan bir vaziyatda aytgan bu qat'iy so'zlarini so'zlarini siz yaxshi eslaysiz. Har bir farzandimiz iste'dodini yuzaga chiqarib, ularga qanot bag'ishlab kelayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, uning mantiqiy davomi bo'lgan Maktab ta'limini rivojlantirish dasturi ana shu muqaddas davlatning maxsuli emasmi? Darhaqiqat, bu ta'lim tizimidagi eng yorqin sahifadir. Bu ishlar samarasini o'quvchi-yoshlarimizning ketma-ket nufuzli xalqaro fan olimpiadalari

va sport musobaqalarida erishayotgan muvaffaqiyatlarini ko‘rib guvoh bo‘lib turibmiz. Yaqindagina Germaniyada bo‘lib o‘tgan 50-Xalqaro olimpiadada bir yo‘la uch nafar o‘quvchimizning 104 ta davlatdan 600 ga yaqin o‘quvchi ishtirok etgan bilimlar bahsida bitta kumush va 2 ta bronza medallari bilan taqdirlandi.<sup>1</sup>

Yana bir gap. Bugun dunyoda kechayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ko‘p davlatlarning belini bukdi. Qator mamlakatlarda qanchadan qancha ijtimoiy ob'yektlar qurilishi to‘xtab qoldi. Lekin, bizda birorta maktab, kollej binosining qurilishi to‘xtatilgani yo‘q. Aksincha, bu yilning o‘zida yuzlab maktab, litsey va kollejlari, sport inshootlari qad rostladi. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi, xo‘sh bu ishlar o‘zidan o‘zi bo‘lyatimi? Hech narsa oydan, osmondan tayyor tushmaydiku?!

Beixtiyor shukrona keltirasan. Mamlakatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek, “Haqiqatdan ham, bundan 12 yil oldin boshlangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va 2004-yilda uning tarkibiy qismi sifatida qabul qilingan Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi ijtimoiy hayotimizda tub burilish yasadi.” Buning uchun nafaqat poytaxtda, balki mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida yoshlarni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalaydigan zamonaviy ta'lim muassasalari zarur edi. O‘tgan davr mobaynida nafaqat shahar, tuman markazlarida, balki eng chekka Tomdidan tortib, So‘xgacha, Xonobodan tortib, Mo‘ynoqqacha, deyarli barcha hududlarda moddiy texnika bazasiga ega bo‘lgan zamonaviy yangi ta'lim muassasalari qad rosladi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida bunyod etilgan zamonaviy akademik litsey va kasb-hunar kollejlari kutilganidek qisqa vaqt ichida mamlakatimizning barcha hududlarining ma'rifat, ma'naviyat, ilm-fan, bir so‘z bilan aytganda taraqqiyot o‘chog‘lariga aylanayotganiga guvoh bo‘lib turibmiz. Ta'kidlanganidek, “O‘tgan yillar mobaynida ana shu litsey va kollejlarni 1 million 446 mingdan ziyod farzandlarimiz. Jumladan, 1 million 55 ming nafardan ortiq qishloq yoshlaribiritirib, bugungi kunda igshlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi, boshqaruv va ijtimoiy sohalarda, barcha jabhalarda mehnat qildayotgani bizning shu yo‘lda erishgan eng katta yutug‘imiz bo‘ldi, desak, hech qanday mubolag‘a

---

<sup>1</sup> Murod Malik. O‘zbek qadriyatlarini. 1-kitob.-T.: Cho‘lpon, 1995.-271

bo‘lmaydi”. Birgina joriy yilning o‘zida mamlakatimizda aynan shu yo‘nalishda amalga oshirayotgan ishlar yangi bosqichga ko‘tarilib 1 ming 957ta maktab qurilib, rekonsruksiya qilinibdi. Shu bilan birga 214ta akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bunyod etildi.

Kelajak haqida qayg‘urish! Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi davlat rahbarining o‘z xalqi tug‘ilayotgan, voyaga yetayotgan o‘g‘il-qizlari to‘g‘risida, ularning baxti-saodati, bir so‘z bilan aytganda Vatan, millat, xalq kelajagi to‘g‘risida qayg‘urishining go‘zal namunasi. Rossiya oliy maktab fanlari xalqaro akademiyasi prezidenti Valentin Shukshunov ta'biri bilan aytganda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi - ta'lim muammolariga chuqur ilmiy va yangicha yondoshuv natijasi bo‘lib, uning boshida Davlat rahbarining bevosita o‘zi turishi chindan ham dunyoda betakror hodisadir.

Bu Davlat rahbarining o‘z vatanining siyosiy-iqtisodiy istiqbolini ta'lim va xalq ma'naviyati bilan uyg‘un ko‘ra olish salohiyati ifodasidir"<sup>1</sup>.

Allomalarning fikricha eng yuksak maqsadlar, g‘oyalar targ‘iboti ham ularga erishishning ijobiy yo‘lini ko‘rsata bilmasa, hech nimaga xizmat qilmaydi. Ana shu ma'noda mustaqilligimizning ilk kunlaridan boshlab Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan "O‘zbekiston-kelajagi buyuk davlat" degan ulug‘ maqsadga erishishning eng asosiy, muhim yo‘llaridan biri bu - Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini yaratish, uni amalga oshirish bo‘ldi, desak adashmagan bo‘lamiz.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”.

## **II. BOB. JISMONIY TARBIYA VA SPORT IJTIMOIIY-MADANIY FAOLIYATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA**

### **2.1. Barkamol avlod sport musobaqalari milliy bayrami**

Mamlakatimiz yoshlarni jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga uzluksiz jalb qilishni ta'minlash 2000-yildan amalga oshirila boshlandi. Bular maktab o'quvchilarining «Umid nihollari» kasb-hunar kollejlari va akademik litsey o'quvchilarining. «Barkamol avlod», oliy o'quv yurtlari talabalarining «Universiada» sporti musobaqalaridir. Jahonda yoshlarning barcha qatlamlarini jismoniy tarbiya va sportga ommaviy jalb etishning bunday uch bosqichlari uzluksiz tizimi jahon tajribasida hali kuzatilmaganda bunga ilk marotaba O'zbekistonda asos solindi.

#### **Umud nihollari.**

Respublikamizning barcha umumiy talim maktab o'rta o'quvchilari o'rtasida Umid nihollari sport musobaqallrini o'tkazish yaxshi an'anaga aylanmoqda. Bu musobaqalarning asosiy maqsadi maktab o'quvchilarini fizkulto'ra va sport ishlariga jalb etib, ularning har tomonlama kamol topishi va jismoniy baquvvat bo'lishiga ko'mak berish.

«Umid nihollari» asosan uch bosqichda: (sport turlari bo'yicha) avval tuman, so'ng viloyat va nixoyat respublika darajasida o'tkaziladi. Birinchi bosqichga maktablarning eng yaxshi yosh sportchilari qatnashadilar. Ikkinchi bosqich viloyat darajasida tuman musobaqalarining g'oliblari ishtirokida o'tadi. Yakuniy uchinchi bosqich respublika darajasida viloyat musobaqalari g'oliblari qatnashadilar. Respublika "Umid nihollari" musobaqalarining g'oliblari moddiy va ma'naviy rag'batlantiriladi.

2002-yil Farg'onada o'tkazilgan «Umid nihollari» nafaqat sport, balki ulkan madaniyat va sanat bayramiga aylandi.

«Umid nihollari»ning ahamiyati shundaki, bunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida bilim olayotgan millionlab bolalar sportga uzluksiz jalb qilinadi, bu



asa o‘z navbatida, jarayonni zamon talablari darajasiga ko‘taradi<sup>1</sup>. Olimpiya harakatini rivojlantirishga xizmat qiladi.1 Maktab o‘quvchilari o‘rtasida «Alpomish va Barchinoy» sport musobaqalari keng shuxrat qozonmoqda. Bu musobaqa hozirgi yoshlarimizni har tomonlama ma'naviy va jismoniy kamol topishida muhim rol o‘ynab, ular orasida ham yangi Alpomish va Barchinoylarning paydo bo‘lishiga xizmat qilmoqda.

Barkamol avlod.

2001 yil may oyi birinchi haftasida Jizzax shahrida O‘zbekiston Respublikasi o‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida «Barkamol avlod» sport musobaqalari katta tantanalar bilan o‘tkazildi. Viloyatning bosh o‘yingoxi yoshlik, barkamol shukuxi bilan to‘lib, haqiqiy sport ia sanat shodiyonasiga aylaidi.

Barkamol avlod sport musobaqalari qadnashchilariga yo‘llagan tabrik so‘zida O‘zbekiston Prezidenti I Karimov jumlada shunday dedi: «Aziz o‘g‘il-qizlarim! Sizdek bilim va kurashga tashna o‘g‘il-qizlarimni bayramga bosib aytmogchiman: Siz - Alpomish Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi mard va botir iisonlarning avlodisiz, siz - buyuk yurt farzandlarisiz.2 Unversiyada

Kelajagi buyuk O‘zbekistonning yosh avlodini ma'naviy yituk, jismoniy barkamol qilib tarbiyalash Respublika xukumatining doimo diqqat markazida turadi.

Namanganda birinchi Universiada - 20% sport musobaqalari o‘tkazildi Bir hafta davomida respublika oliy o‘quv yurtlarnning bir yarim ming talabasi sportning to‘qqizta ommaviy turida o‘z kuchi, epchilligi, mahorati va omilkorligini namoyish etdi. Navoiy viloyati jamoasi eng ko‘p oliy mukofotta sazovor bo‘ldi. Umumiy hisobda keyngi sovrinli o‘rnlarni «Toshkent-1» jamoasi va Samarqand jamoasi sportchilari egalladilar. Universiadaning o‘n besh qatnashchisi O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning faxriy sovrini bilan taqdirlandi, ularga mukofot tariqasida Tiko yengil avtomashinalari berildi.

---

<sup>1</sup> [www.fikr.uz](http://www.fikr.uz) <<http://www.fikr.uz>>

Universiada ochilishi katta teatrlashtirilgan badiiy-sport tomoshasi shaklida o'tkazilib, unda ko'plab talaba sportchilarning namoyish chilari va respublika yosh sanatkorlarining gala konserti namoyish etildi Universiada sport, san'at, madaniyat, yoshlik, go'zallik, erkin hayot zavqining yerkin namoyishi bo'ldi.

«Universiada - 2002» sport musobaqalari 2002 yil may oyida qadimiy va navqiron Buxoro shahrida an'anaviy sport shodiyonasi sifatida bo'lib o'tdi.

Buxoro sport bayrami faqat musobaqalar bilangina cheklanmadi, balki bu obodonchilik, tozachilik, mexmondustlik namoyishi, shuningdek vatanga muhabbat ruhini shakllantiruvchi ajoyib tadbirga hamda aylandi.

Musobaqalarning tantanali ochilish marosimida olimpiya mashalasi yopilishi katta ahamiyatga ega. Yangi vujudga kelgan an'ana bo'yicha mash'ala Parkent tumanidagi «Fizika-kust» ilmiy ishlab chiqarish markazining 2600 gradusli o'chog'ida barcha viloyatlardan tanlab olingan o'quvchilar ishtirokida tantanali marosimda yondiriladi. Bundan asosiy maqsad - o'quvchilar qalbida jismoniy tarbiya va sportga qiziqish sog'lom turmush tarzini voyaga yetkazishdan iborat. Quyoshdan nur olgan mashala hapopaga, tafti murg'ak qalblarni, millat deb yondirishga xizmat qiladi.

Mash'alaning o'chib qolmasligi uchun respublika «Vatanparvar» tashkiloti mutaxassisleri adov saqlash qurilmasini tayyorlashgan. Mash'ala dastagi chinor daraxtidan tayyorlanganligi teran tariximizga, xalqimizning mustaxkam iymonirodasi, mustaqilligimizning boqyligi yuqori qismi lola shaklida ekanligi yoshlik yosharish va yangilanishdan dalolat beradi. Mash'alaning toj oq po'latdan yasalgan bo'lib, milliy boyligimiz paxta shaklidagi naqshlar bilan bezatilgan. Uning qo'rg'onlari esa Vatanimiz sarxادلari mustaxkamligini millatimizning birdamligini anglatadi. Yangi oy, tong yulduzlari va milliy gumbazlar xurligimizni tinch va osuda xayotimizning ramziy ifodasini bildiradi.

Tennis bayrami.

Sport musobaqalari orasida tennis baxslari eng qiziqarli o'yinlar sirasiga kirib bormoqda. Ma'lumki, har bir o'yin musobaqa bu nafaqat sport, balki bayram hamdir. Bu bayramona holatni 1994-yil, 28 may 5- iyun kunlari Toshkentda tennis

bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ko'bigi uchun birinchi Xalqaro turnirida yaqqol sezsa bo'ladi.

Bunday sport bayrami 1995-yil 2 sentyabr kuni ushbu ko'bok uchun ikkinchi xalqaro turnirida ham ko'tarinki shaklda namoyon bo'ldi. Unda dunyoning 14 mamlakatidan sportchilar qatnashdi. Marokashlik tennischi Karim Alamiy turnir g'olibi bo'ldi. 1999-yil 2-8 sentyabr kunlari an'anaiy III xalqaro turnir ham muvaffaqiyatli o'tdi. Turnirda O'zbekiston Prezideti I. Karimov nutq so'zladı va musobaqa g'olibi Ispaniyalik tennis ustasi Feleks Mantillega bosh sovrinni topshirdi.

1999-yilda turnirda jahonning 26 mamlakatidan 80 nafar sportchi ishtirok etishi uni xalqaro sport bayramiga aylantirib, yurtimiz obro'siga obru qo'shdi.

VII xalqaro turnir 2000-yilning 11 - 17 sentyabr kunlari bo'lib o'tib, unda Prezident ko'bogi Rossiyalik sportchi Marat Safinga nasib etdi. Qaror toptirish tuygo'sini shakllantirish va ularni har jihatdan barkamol inson qilib Vatanimiz 10 yillik tantanalari davom etayotgan kunlarda mamlakatimizda yana bir ulkan bayram-tennis bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ko'bogi uchun 8-xalqaro turnir bo'lib o'tdi (sovrin jamg'armasi 550 ming AQSH dollari miqdorida belgilandi).

Turnirda yigirmadan ortiq davlat jumladan, AQSH, Rossiya, Fransiya. Germaniya, Italiya, Isroil taniqli dunyo tennis reytingiga zga tennis ustalari qatnashdi<sup>1</sup>.

O'zbekistona qisqa vaqtda eng zamonaviy talablarga javob beradigan tennis kortlar qurilib foydalanishga topshirildi. Mamlakatimiz jahonning tennis o'ta rivojlangan davlatlari safidan joy oldi. Bu esa «Prezident ko'bogi» turkumidagi rasmiy turnirlar sirasiga kirib, dovrug'ining tinmay oshib borishida ham muhim omil bo'lmoqda. Mazkur musobaqa O'zbekistonni tennis bo'yicha Osiyoning eng yetakchi davlatlaridan biriga aylantirdi.

2001-yil 10 sentyabr kuni Toshkentdagi «Yunusobod» tennis kortida «Prezident ko'bogi» xalqaro turnirining tantanali ochilish marosimi bo'lib, o'tdi

---

<sup>1</sup> [www.fikr.uz](http://www.fikr.uz) <<http://www.fikr.uz>>

O‘zbekiston Respublikasi Prezident Islom Karimov so‘zga chiqib, musobaqada dunyo tenisining tan olingan ustalari itirok etayotganidan mamnun ekanligini takidladi. Mazkur tennis ustalari Yevgeniy Kafelnikov, Marat Safin, Dominik Horbati, Nikolas Kegfer, Mark Ross kabi ko‘plab raketka ustalari sportning mana shu go‘zal, jozibador va ommabop turi muxlislarining muhabbati va hurmat etiborga sazovor bo‘lganlar»

«Yunusobod» kortlarida o‘tgan bu ulkan sport bayramining shukuxi jahonning ko‘plab mamlakatlarini qamrab oldi, desak xato bo‘lmaydi. Chunki talay xorijiy telekompaniyalar boshqa ommaviy axborot vositalari vakillari mazkur musobaqani uzluksiz jahonga yoritib turdi. 16-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov «Prezident ko‘bogi» xalqaro tennis turnirining final qismini tomosha qilish uchun «Yunusobod» sporti shundan so‘ng davlatimiz rahbari mazkur turnirda ikkinchi bor g‘alaba qozongan Marat Safinga musobaqaning bosh sovrini «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ko‘bogi tantanali ravishda topshirib unga O‘zbekona zar to‘n kiydirdi.

Marat Safin turnirning juda muvaffaqiyatli o‘tganini takidlar ekan, bu nufuzli musobaqani o‘tkazishga bosh qo‘shgan barcha tashkilotchilarga samimiy minnatdorchilik bildirdi.

Xullas, Prezident Ko‘bogi obro‘yining yildan-yilga oshib borishi O‘zbekiston sportining xalqaro nufuzini oshirmoqda<sup>1</sup>.

Xalqaro musobaqalar.

Respublikamizda o‘tkaziladigan xalqaro sport musobaqalar o‘ziga xos sport bayramlariga aylanib ketmoqda. Musobaqa qatnashchilari o‘zbek odatlariga ko‘ra izzat-hurmat bilan kutib olinishi, sport anjumanining karnay-surnay sadolari bilan tantanali ochilishi musobaqalarning tizimli o‘tkazilishi, g‘oliblarni sharaf flash shodiyonalari unda davlat bayroqcharining ko‘tarilishi va madhiyalarining yangrashi, tadbirlarning tantanali yopilish marosimlari mazkur musobaqalarni haqiqiy bayramga aylantirib yubormoqda.

---

<sup>1</sup> Shuhrat G‘oyibnazarov “Ommaviy madaniyat” -T.: “O‘zbekiston”2012 yil. 217-b

Mustaqillik sharoitida vatanimizda quyidagi sport turlari bo'yicha yirik xalqaro musobaqalar sport bayrami xolatida o'tkazilmoqda:

Kurash 1993-yil martda Termizga o'rta asr qomusiy olimi Xakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlab kurash bo'yicha o'tkazilgan xalqaro musobaqalarda jahonning typli mamlakatlaridan sport yuzdan ko'proq polvonlar qatnashdi 22-23 noyabrda Toshkentda «O'zbekiston mustaqilligi ko'bogi» uchun erkin kurash bo'yicha birinchi xalqaro turnir bo'lib o'tadi. Unda Yevropa va Osiyoning 40 ta mamlakatidan kelgan 130 nafardan ortiq sportchi qatnashdi.

Noyabr oyida Toshkentda Sobir Rahimov xotirasiga bag'ishlangan yunon rum kurashi bo'yicha xalqaro turnir o'tkazildi. Mukofotlarni topshirish chog'ida Islom Karimov haqiqiy sport bayramini taqdim etgani uchun barcha tennis ixlosmandlari va sport ishqibozlari nomidan musobaqaning barcha ishtirokchilariga minnatdorchilik izhor etdi.

O'zbekiston, Qozog'iston, Qirgiziston, Tojikiston, Rossiyadan kelgan 200 sportchi qatnashdi. Jizzaxda esa boks bo'yicha xalqaro yoshlar turniri o'tkazildi. Unda ikki yuzdan ortiq sportchi mukofotlar uchun kurashdi.

1998-yil 22-24 mayda erkin va yunon-rum kurashi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi ko'bogi uchun o'tkazilgan II Toshkent xalqaro turnirda jahonning ko'p mamlakatlaridan kelgan 184 nafar polvon qatnashdi.

1998-yil 29 iyunda Toshkentda sambo kurashi bo'yicha yettinchi xalqaro turnir ochildi va shu yili 6-7 sentyabrda Toshkentda kurash bo'yicha «O'zbekiston Prezidenti ko'bogi uchun birinchi xalqaro turnir bo'lib o'tdi. Unda 20 dan ortiq mamlakat vakillari qatnashdi. O'zbekiston Prezidenti bosh sovrinni Turkiyalik polvon Salim Tatar o'g'li oldi.

Toshkentda sovrin uchun sambo bo'yicha xalqaro yoshlar turniri bo'lib o'tdn. Unda O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmanistondan kelgan 200 dan ko'proq sportchi qatnashdi, 1-2 may kunlari Toshkentda kurash bo'yicha birinchi jahon chempionat bo'lib o'tdi. Unda 48 mamlakatdan kelgan sportchilar qatnashdi. Mamlakatimiz polvonlar 3 ta oltin 3 ta kumush va 4 ta bronza medaliga sazovor

boʻldilar. Lkobir Karbonov, Kamol Murodov, Toshtemir Muhamedov oʻz vazn toifalari boʻyicha jahon chempioni boʻlindi.

30-may kunlari Toshkentda birinchi marta yumon-rum kurashi boʻyicha erkak na ayollar oʻrtasida anʼanaviy Osiyo chempionati boʻlib oʻtdi. Unda 14 mamlakatdan kelgan 500 nafardan ortiq sportchi qatnashdi. Chempionatda Oʻzbekiston terma komandasi erkin kurash boʻyicha komanda hisobida I-oʻrinni egalladi. Igor Kupsev (69 kg). Ruslan Chagayiv (76 kg), ustasi qatnashdi<sup>1</sup>.

Zarafshonda yoshlar oʻrtasida Navoiy togʻ metallurgiya kombinatining 40 yilligiga bagʻishlangan xalqaro musobaqa boʻlib oʻtdi. Unda respublikamiz, Qozogʻiston va Qirgʻiziston «charm qoʻlqop» ustalari kuch sinashdilar. Navoiylik yosh bokschilarning chiqishlari muvaffaqiyatli boʻldi. Akrom Fayziyev, Kamoliddin Normurodov... oʻz vazn toifalarida birinchi oʻrinni egallashdi.

Futbol 1994-yil 2-aprel kunlari Toshkentda futbol federasiyalari xalqaro assotsiatsiyasi (FIFA) va Osiyo futbol federatsiyasi (AFK) futbol boʻyicha birinchi marta xalqaro turniri boʻlib oʻtdi.

1994-yil 20-29 may kunlari Toshkentda Osiyo chempionati finalita chiqish uchun oʻrta Osiyo va Qozogʻistondagi beshta davlat yoshlar komandalarining futbol boʻyicha ochiq turniri oʻtkazildi. 2-6 oktyabrda Zarafshonda kichik futbol boʻyicha VI xalqaro turnir boʻlib oʻtdi, 24 avgustda «Paxtakor» markaziy stadionida Osiyo chempionati saylanma guruxining Oʻzbekiston terma komandasi Yaman komandasi bilan uchrashdi. Uchrashuv oʻzbek futbolchilari gʻalabasi bilan tugadi.

Chirchiqda ayollar oʻrtasidagi futbol boʻyicha Oʻrta Osiyo chempionatining soʻngi turi boʻlib oʻtdi.

Andijon shahridagi «Andijon qizi» futbol-xokkey klubi qizlari birinchi oʻrinni egalladilar. Tennis 1994-yil 3 mayda Toshkentda «Buyuk ipak yoʻli» shiori ostida tennis boʻyicha xalqaro musobaqalar ochildi. Bu musobaqalarda 22 mamlakat sportchilari qatnashdi. 28 maydan 5 iyungacha Toshkentda Prezident Koʻbogi uchun birinchi Xalqaro tennis turniri oʻtkazilib, Amerika tennischisi Chak Adams

---

<sup>1</sup> [www.fikr.uz](http://www.fikr.uz) <<http://www.fikr.uz>>

uning birinchi sohibi bo'ldi va 29-avgustda Toshkentda tennis bo'yicha ochilgan O'zbekiston Respublikasi Prezident Ko'bogini uchun olib boriltan ikkinchi xalqaro turnirda mamlakat sportchilari qatnashdi. 1990 yil 2-5 sentyabrda Toshkentda tennis bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezident Ko'bogini uchun uchinchi xalqaro turnir bo'lib o'tdi. 8-16 iyunda Toshkentda tennis bo'yicha Xalqaro ayollar turniri bo'lib o'tdi. Aprelda Toshkentda tennis bo'yicha yoshlar an'anaviy xalqaro turniri bo'lib o'tdi. 8 iyunda Toshkentda tennis bo'yicha ayollar ikkinchi xalqaro turniri bo'lib o'tdi. 1996-yil 12-iyulda Namanganda tennis bo'yicha Xalqaro yoshlar turniri o'tkazildi. Unda O'rta Osiyo davlatlaridan 13 yoshgacha bo'lgan 44 nafar sportchi qatnashdi. Aprelda Andijonda tennis bo'yicha Buyuk ipak yo'li xalqaro turniri o'tkazildi. Unda 20 ta mamlakatdan kelgan taniqli sportchilar qatnashdi. Andijonda tennis bo'yicha xalqaro turnir bo'lib o'tdi. 2-8 iyunda Toshkentda tennis bo'yicha ayollar xalqaro turniri bo'lib o'tdi.

1990 yil oktyabrda Farg'onada Buyuk ipak yo'li xalqaro tennis turniri o'tkazildi. Toshkentlik sportchi Vadim Kutsenko uning g'olibi bo'ldi.

Toshkentda stol tennis bo'yicha O'zbekiston mustaqilligini 5 yilligiga Amir Temur yubileyining 600 yilligiga bag'ushlangan xalqaro turnir bo'lib o'tdi. 14-20 sentyabrda Toshkentda tennis bo'yicha «O'zbekiston Prezidenti Ko'bogini» uchun beshinchi xalqaro turnir bo'lib o'tdi. Unda 18 mamlakatdan kelgan 49 nafar eng kuchli tennischi qatnashdi. Turnirning yopilish marosimida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov nutq so'zladi va ikkinchi bor turnir g'olibi bo'lgan ingliz tennischisi Tim Xyonmanga kumush Ko'bogini topshirdi.

Samarqanda ham xalqaro tennis turniri bo'lib o'tdi. Yakkama-yakka olishuvda g'alaba tennischi asl Frederik Ionesonga nasib etdi. Turnirning juft razryatdagi bosh mukofot dul Noam ber-Eal Ranga topshirildi.

Karshi shahrida yangi bunyod etilgan «havas» sport majmuidida tennis bo'yicha dunyoning qariyb barcha mamlakatlaridan kelgan raketka ustalari ishtirokida xalqaro turnir bo'lib o'tdi. Unda Avstriya, Belorussiya, Vengriya, Misr, Italiya, Shvetsiya sportchilari qatnashdi. O'zbekistonlik tennischilar Oleg Ogorodov va Dmitriy Tomoshevich turnir g'olibi bo'lishdi.

Farg‘ona shahrida «Istidot» xalqaro turniri bo‘lib o‘tdi. Unda jahonning 50 dan ortiq mamlakatidan kelgan tennis raketkasi ustalari bir hafta davomida kuch sinashdilar.

8-aprelda Namanganda «Fyuchers istiqbol» tennisi bo‘yicha xalqaro turnir bo‘lib o‘tdi. Unda 15 mamlakatdan kelgan tennischilar qatnashdi. Shaxmat 1994-yil oktyabrda Termizda IV xalqaro shaxmat festivali bo‘lib o‘tdi. U o‘z ishtirokchilariga xalqaro usta me‘yorini bajarish imkonini berar edi. Mazkur shaxmat turnirida Vyetnam, Qatar, Germaniya, Isroil, Avstriya, Rossiya, Qozog‘iston, Ozarbayjon va O‘zbekiston shaxmatchilari qatnashdilar.

21-oktyabrda Toshkentda mamlakatimiz mustaqilligining 6 yilligiga bag‘ishlangan gazetada mukofot uchun ikkinchi xalqaro bolalar shaxmat turniri ochildi. Unda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston va Qirg‘izistonning yetti yoshdan yitmish yoshgacha bo‘lgan shaxmatchilari qatnashdi 17-25 noyabrda Toshkentdagi «Jar» sport majmuida O‘zbekiston Respublikasi Toshkentda sovrinlar uchun O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yetti yilligiga bag‘ishlangan bolalar uchinchi xalqaro shaxmat turniri bo‘lib o‘tdi. Bosh sovrini Toshkentliklarga nasib etdi. Shaxsiy hisobdagi mutlok birinchilikni uchtalikka nomzod 16 yashar Jasur Majidov egalladi.

Shashka 1995-yil dekabrda Toshkentda rus shashkasi bo‘yicha ikkinchi xalqaro turnir o‘z ishini yakunladi. 8-oktyabrda Samarqandda ham o‘tkazilgan 64 katakli shashka bo‘yicha uchinchi jahon chempionati ochildi Basketbol 1997-yil oktyabr oyida Buxoroda basketbol bo‘yicha xalqaro erkaklar turniri o‘tkazildi.

Toshkentda basketbol bo‘yicha ananaviy xalqaro turnir bo‘lib o‘tdi. Unda mamlakatimiz sportchilardan tashqari, Xitoy, Hindiston, Qirg‘iziston va Qozog‘istondan kelgan sportchilar ham qatnashdilar. g‘oliblik shoxsupasiga yurtimnz sportchilari ko‘tarildi.

Gimnastka 1997- yil dekabrda Navoiy shahrida badiiy gimnastika bo‘yicha xalqaro turnir o‘tkazildi. Unda O‘zbekiston, Gretsiya, Qozog‘iston, Rossiya sportchi qizlari qatnashdi. Rossiya sportchi qizlari turnir g‘olibi bo‘lishdi. Juft



dasturida O‘zbekistonlik Tatyana Zavalovskaya va Yuliya Velku bronza medali sovrindori bo‘lishdi.

Kilichbozlik, Toshkentda qilichbozlik bo‘yicha taniqli sportchi Sobir Ro‘ziyev sovrini uchun bo‘lib o‘tgan xalqaro turnirda O‘zbekiston ayollar komandasi birinchi o‘rinni egalladi. Bu G‘alaba ham oltin medalga sazovor bo‘lgan Toshkentlik Svetlana Filimonova nasib yetdi<sup>1</sup>.

Erkaklar orasida qilichboz yurtdoshlarimizdan R. Baxtiyev, Ye Yuldoshev va A. Bag‘dasarov muvaffaqiyatli qatnashib, hurmat shohsupasiga ko‘tarildilar. Xokkey 1996-yil 8-aprelda Buxoroda ayollar komandalari o‘rtasida chim ustida xokkey bo‘yicha xalqaro turnir bo‘lib o‘tdi.

Sentyabr oyida Toshkent shahrida ilk bor Markaziy Osiyo xalqlarining sport o‘yinlari muvaffaqiyatli uyushtirildi. Bayram «Paxtakor» stadionida karnay-surnay navolari bilan boshlanib, teatrlashtirilgan badiiy sport tomoshasi bilan davom ettirildi. Kutilmaganda maydonga jangchilar kirib keldi. Tomoshabindalar ichidan kungillilar chiqib ularga qarshi urush boshladilar. Jang avjga chiqdi. Shu vaqt bong urilib, maydondagi barcha jangchilar qotib qoldi. Diktor ovozi yangradi: Tariximizda bayramlar, Olimpiadalar boshlangan vaqtda urushlar to‘xtatilgan. Ajdodlarimiz nomi bilan talab qilaman: Urush to‘xtatilsin! Bayram-olimpiada boshlandi!

Maydonga Markaziy Osiyo xalqlarining afsonaviy Alpomish, Rustam, Manas va boshqalar siymolari chiqadi. Ular mustaqillikka erishgan barcha xalqlarni urushga emas do‘stlashishga chaqirishadi. Xalqlar o‘rtasida urushlar emas, do‘stlik olimpiadalari o‘tkazishga undashadi. Maydonni raqqoslar egallab Xush kelibsiz nomli kapalak o‘yin ijro etdilar. O‘yinchilar o‘zbek, qozoq tojik, turkman, qirg‘iz xalqlarining sportchi vakillari kirib kelishib maydondagi o‘z joyini egallashadi.

Texnik sport turlari. 1998 yilning sentyabrda Toshkent yaqinidagi aviamodel bo‘yicha Osiyo tarixila birinchi chempionat bo‘lib o‘tdi unda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Armaniston va Indoneziya komandalari qatnashdi.

---

<sup>1</sup>Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot: Ilmiy ishlar to‘plami /Muharrir A.Umarov.-T.: O‘zbekiston, 1997.-199 b.

O‘zbekistonda Toshkent-Chimyon dam olish maskanida eng kuchli avtohaydovchilarning o‘n birinchi xalqaro musobaqalari bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston komandasi birinchi o‘rinni egalladi.

## **2.2. Ijtimoiy madaniy faoliyat orqali yoshlarning jismoniy tarbiya va sportga qiziqishlarini oshirish**

Mustaqillikka erishilgandan so'ng, O'zbekiston raxbariyati eng avvalo, xalqimizning extiyoji, orzu - istaklarini hisobga olib, azaliy bayramlarni tiklashga va yangi istiqlol bayramlarini shakllantirishga katta e'tibor bera boshladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Farmonlari asosida «Navro'z», «Ro'za xayiti», «Qurbon xayit» lar rasman tiklanib, xalq o'rtasida keng nishonlana boshladi. Shuningdek, istiqlolni sharaflaydigan ikki bayram «Mustaqillik kuni» va «Konstitutsiya kuni» joriy etildi. O'z navbatida O'zbekiston raxbariyati Sho'rolar davrida paydo bo'lgan barcha bayramlarni ta'qiqlamadi. Ular orasida umuminsoniy g'oya va qadriyatlarni targ'ib qiluvchi «Yangi yil bayrami», «Xotin-qizlar bayrami» kabilar saqlab qolindi.

Xalq an'analariga oid tadqiqotlarimiz, chunonchi, Markaziy Osiyo xalqlarining ming yil ichidagi yuzga yaqin bayram va marosimlariga oid to'plangan ma'lumotlar taxlil natijasida quyidagilar ma'lum bo'ldi: Insonning tabiiy - xayotiy extiyojlar asosida paydo bo'lgan marosim va bayramlar asrlar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Ularga siyosiy vaziyatlar, turli davlat sulolalarning maxv etilishi, xukmdorlar, istilochilarning kelib ketishlari, xattoki xududdagi axoli tarkibi o'zgarishlari ham ta'sir etmaydi. Ikkinchi turkum bayram marosimlar esa ma'lum vaqtdan so'ng o'zgarishi yoki boshqa yangi bayramlar vujudga kelishi asos bo'lishi mumkin. Uchinchi gurux marosim va bayramlar esa muayyan davr siyosati, davlat yoki xukmdorlarning xoxish-irodasi sifatida vujudga keladi, o'shalar bilan birgalikda yashaydi va o'z tarixiy vazifasini bajarib bo'lganidan so'ng barham topadi.

Xalq an'anaviy madaniyati borasida so'z borganda, yoshlar kamolotida muhim o'rin tutadigan xalq o'yinlariga aloxida to'xtalish lozim. Buning sababi kuyidagilardan iborat: birinchidan, o'yinlar - ajdodlarimizning eng qadimiy tarixiy qadriyati, ko'pgina madaniyati shakllari chashmasiraqs, teatr, sport, marosimlar kabilar aynan o'yinlar zaminida kelib chiqqan va tarixiy jarayonlarda o'yinlar ajdod - avlodlarimizning sog'lomlashtiruvchi vositasi bo'lib kelgan; ikkinchidan:

ota-bobolarimiz xalq o'yinlari va musobaqalari yordamida aqlan raso, ruxan tetik, jismonan baquvvat bo'lib kelgan; uchinchidan, o'yinlar nafaqat ma'naviy meros bo'lib qolmasdan zamondoshlarimizni, ayniqsa, yoshlarimizni aqliy, ruxiy va jismoniy barkamol bo'lishida o'ta muhim o'rin tutadigan manbadir.

O'yinlar-eng qadimiy madaniyat shakllaridan biri. Ular ko'pgina san'at turlari (raqs, teatr), marosim, sport kabilarning sarchashmasidir. Biz shunga aloxida e'tibor berib, Forish noxiyasida 1985-yildan boshlab unutilgan xalq o'yinlarini o'rganish (1985-86-yil) tiklash (1987-91-yil), va targ'ib qilish (1991-93-yil) bo'yicha tajribalar olib borilgan. Buning natijasida, 100 ga yaqin o'yinlar tiklandi. Mazkur tajriba natijalari an'anaga aylanib, Har yili o'tkazilib kelinayotgan «Xalq o'yinlari» bayramlari olimpiadasi, qator filmlar va ommaviy axborot vositalarida, tadqiqotlarda o'z aksini topdi. Tajriba asosida xalq o'yinlarini tiklash va rivojlantirish yo'llari belgilandi.

Respublikamizda xalq o'yinlarining tiklanishida ham aynan Jizzax viloyati Forish tumanini tajribasi diqqatga sazovor bo'ldi. Bu yerga avvaliga bir maktab, qishloq, keyin tuman, so'ngra viloyat va nixoyat, respublika darajasida tiklangan xalq o'yinlari bo'yicha musobaqalar uyushtirildi. Forishda 1994-96-yillarda Respublika I-II Olimpiadalari o'tkazilishi o'lkamizning turli joylarida azaliy xalq o'yinlariga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib yubordi.

Shu narsani quvonch bilan qayd etish kerakki, o'yinni jon dildan sevadigan yoshlarimiz ajdodlarimizning o'yinlariga katta qiziqish bilan qarashmoqda. Forishda o'tkazilgan olimpiada musobaqalarining ishtirokchilari asosan, o'spirin-yoshlardan tashkil topdi. Bu esa XX asr o'rtalarda unutilgan an'analarini asr oxirida tiklanib, yoshlar tomonidan o'tkazilganidan dalolat beradi.

Xalq o'yinlarini tiklash jarayonida ham o'ziga xos muammolar yo'q emas. Masalan, azaliy musobaqalarning sportga yaqin turlariga ko'p e'tibor berilmoqda. Biroq o'yinlarning Harakatli tomoniga e'tiborni kuchaytirib, urg'u berib, ruxiy tomoni unutilib qo'yilmoqda. Xolbuki Sharq o'yinlarida odingi o'rinda ruxiyat, keyin jismoniyat turgan. Ajdodlarimiz foydalangan so'z o'yinlar, aqlli o'yinlar, raqsli o'yinlar, syujetli teatrlashtirilgan o'yinlar ham diqqat talab qilmoqda.

Xalqimizda insonni Har tomonlama barkamol qiladigan an'analar, o'yinlar, musobaqalar yaratilgan, ulardan nafaqat saralab, balki an'anaviy o'yinlar tizimidan yaxlit shaklda foydalanmoq ham kerak<sup>1</sup>.

Madaniy merosimizning bir qismi bo'lgan, avlod-ajdodlarimizga asrlar mobaynida rux jon va sog'lik ato etib kelgan xalq o'yinlarini jonlantirish-milliy qiyofamiz, ma'naviyatimiz va qadriyatimizning muhim qismini tiklash demakdir. Ularni ko'z qorachigidek asrash, e'zozlash va ulardan oqilona foydlana olish muqaddas ish ekanligini unutmashimiz kerak. Ana shunday qila olsak o'zimizning ham, kelajak avlodlarimizning ham, xalq iborasi bilan aytganda «jonu tani omon bo'ladi».

An'anaviy xalq madaniyati va uning asosiy ko'rinishlari (xalq donishmandligi, e'tiqodi, pedagogikasi, an'analari, ijodi, dam olish madaniyati, o'yinlari kabilar) insoniyatning tarixiy extiyojlari asosida vujudga kelib, xalq xayotida o'zining munosib o'rnini topgan, avloddan - avlodga meros bo'lib o'tgan, takomillashib, ijtimoiy taraqqiyotda muhim o'rin tutgan. Ular hozirgi zamonda ham jamiyatni ma'naviy kamol toptirish uchun muhim omil sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ajdodlarimizning bu bebaxo merosini yanada chuqurroq o'rganishimiz, tiklashimiz va kamol toptirishimiz uchun aql, kuch va g'ayratimizni ayamasligimiz lozim.

Ijtimoiy madaniy faoliyatda yoshlarning madaniy-xordiqiy tadbirlarini uyushtirish masalalari.

Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unub-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmashimiz lozim<sup>2</sup>. Islom Karimov

---

<sup>1</sup> U.Qoraboyev "O'zbek xalqi bayramlari". -T.: 2001 yil.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimiz hayot darajasini oshirish - barcha ishlarimiz mezon va maqsadidir. 15.T. - Toshkent: O'zbekiston, 2007. T.15. - 320 b

Bugungi yoshlar ertaga jamiyatimizning taqdirini belgilovchi avloddir. Biz bugun yoshlarga qanday tarbiya bersak, bizning kelajagimiz ham ushunday bo'ladi.

Bo'sh vaqtda esa bolalar xohlagan narsalari bilan shug'ullanmovda. Bekor qolgan bolalarning muayyan qismi salbiy oqibatlariga olib keluvchi «faoliyatlar» bilan ham mashg'ul bo'lishmoqda.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda madaniy-ma'rifiy muassasalar (ayniqsa, klub, madaniyat saroyi, madaniyat uyi kabilar)ning imkoniyati kattadir. O'quv yurtlari, asosan, bolalarga bilim-ta'lim berish bilan shug'ullansa, madaniy-ma'rifiy muassasalar ularning bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazishga ko'mak beradi. Biroq, joylardagi madaniyat muassasalari aholining barcha qatlamlari uchun umumiy tadbirlar tayyorlashmoqda.

Ular yoshlarning ehtiyoji, qiziqishi va ularning ruhiyatiga mos tadbirlarni tayyorlashga alohida e'tibor berishmayapdi. Natijada madaniy-ma'rifiy muassasalarning yoshlarni ma'naviy, axloqiy, ruhiy, badiiy tarbiyalash borasidagi faoliyati kerakli darajadan past bo'lmoqda.

Hozirgi paytda yoshlarning bo'sh vaqtini samarali, ijtimoiy foydali qilib uyushtirish maxsus tadqiqotlarga molik muammolardan biri bo'lib, u olimlarimiz va mutaxassislarimiz tomonidan jiddiy e'tiborni kutib turibdi. Bu boradagi madaniy-ma'rifiy muassasalar tajribasi maxsus o'rganishni, umumlashtirishni, tahlil va targ'ib qilishni talab qilmoqda.

Madaniy-ma'rifiy faoliyati muassasalari yoshlarning sevimli maskani sifatida ma'naviy-ma'rifiy, g'oyaviy-siyosiy, badiiy xavaskorlik, sport o'yinlari va boshqalar bo'sh vaqtini mazmunli uyushtirishda muhim rol uynamoqda.

Ma'lumki, madaniyat va aholi dam olish maskanlari o'z faoliyatlarini yoshlarning bo'sh vaqtida olib boradi. U yoshlarni asosiy ishi, o'qishdan tashqari har xil mazmun va shakldagi «ikkinchi» faoliyat bilan shug'ullanishlariga imkoniyat yaratadi.

Bu ko'ngilli faoliyat yoshlarning hordiq chiqarishga, bilimni, dunyoqarashini o'zgaritishga, ijodkorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Xullas, madaniyat va aholi dam olish maskanlari, yoshlar uchun quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish.
- O'qovaskorlik ijodini uyushtirish.
- Madaniy dam olishni tashkil qilish.
- Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish.

Madaniyat va aholi dam olish maskanlarida yoshlar uchun tadbirlar uyushtirishdan oldin mahalliy yoshlarning: ma'naviy ehtiyojlari, qiziqishlari, bilim darajalari, kasbi, madaniy saviyalari, ijodiy imkoniyatlari, vaqt byudjeti va bo'sh vaqti, tashabbuskorligi va uyushqoqligikabi ko'plab omillar hisobga olinmog'i darkor.

Aks holda madaniyat va aholi dam olish maskanlarida tayyorlanadigan tadbirlar yoshlar uchun qiziqarli bo'lmay qoladi. Mazkur omillarni hisobga olish, o'rganish, bilish uchun yoshlar o'rtasida yozma va og'zaki so'rovlar, so'hatlar, ko'zlatishlar o'tkazilishi lozim. So'rovlarda yoshlarga: qaysi mavzular, qanday shakllar (tadbirlar), qaysi ta'sirchan g'oyaviy-badiiy va texnik vositalar yoqishini o'rganmoq lozim.

Aytaylik, yoshlar ko'proq dam olish kechalari, ijodiy bahs, uchrashuvlar, diskoteka, estrada konsert, teatrlashgan tomosha, xalq sayllari, sayohat kabi shakllarni tanlashdi. madaniyat va aholi dam olish maskani xodimlari ko'proq ana shu shakllardan foydalanmog'i kerak.

Yoshlarni qiziqtirgan shakllar aniqlangandan so'ng, madaniyat va aholi dam olish maskani xodimlari mahalliy joydagi yoshlar qo'mitasi bilan birgalikda yillik tadbirlar rejasini tuziladi. Rejada tadbir o'tkaziladigan sana, tadbir nomi, shakli, o'tkazilish joyi va javobgar shaxslar ko'rsatiladi.

Tadbirlar rejasi yoshlar ehtiyoji va mahalliy sharoitdan kelib chiqib boyitilishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda ana shu jarayonlarning mohiyatida islohot - islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti

uchun xizmat qilishi kerak, degan maqsad mujassam ekanini va uning amaliy ifodasini barcha sohalarda ko‘rish, kuzatish qiyin emas”<sup>1</sup>.

Insonning farovon hayoti nafaqat uning moddiy boyligi, balki man'aviy madaniyati bilan ham o‘lchanadi.

Qanday bo‘lmasin mahalliy madaniyat va aholi dam olish maskanlari va yoshlar qo‘mitasi bilan rejalashtirilgan tadbirlar yoshlarni qiziqtirish, mavzuiga jalb etish lozim. Vaqt o‘tishi bilan klub tadbirlari ham yoshlar sinovidan o‘tadi. Shundan kelib chiqib kelgusi yilgi rejada qaysi tadbirlarga ko‘proq, e’tibor berishni hayotning o‘zi ko‘rsatadi.

Yoshlar uchun tadbirlar tayyorlash ma'suliyatli va murakkab jarayondir. Biz mazkur ishda faqatgina uning ayrim tomonlariga diqqat jalb etib, yoshlarni madaniy dam olishi, yoshlar klubi va yoshlar saylini tashkil qilish masalalariga to‘xtalamiz xolos.

«Bo‘sh vaqt - ijtimoiy boylik» deyishadi. U insonning qobiliyatlarini takomillashtirishi, bilim olishi, ma'naviy kamol topishi, jismoniy rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Bo‘sh vaqtdan samarali foydalanish bu birinchidan, mehnat unumdorligini oshirish, ikkinchidan, kishilarning ishda sarf bo‘lgan kuchini tiklash, uchinchidan, sog‘liqni mustahkamlash, ruhiyatni tetiklashtirish demakdir.

Madaniy dam olish jarayoni deyarli barcha madaniyat va aholi dam olish maskanlari tadbirlarida sodir bo‘ladi. Biroq, madaniyat va aholi dam olish maskanlari shunday tadbirlarni tashkil qiladiki, ularda yoshlarning mazmunli dam olishi, xordiq chiqarish asosiy vazifa qilib qo‘yiladi.

Dam olish tadbirlarida yoshlar, birinchi navbatda, mazmunli dam olsalar, ikkinchi navbatda, o‘zlari qiziqqan soha bo‘yicha va har xil foydali ma'lumotlar olish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

Respublika madaniy-ma'rifiy muassasalari, jumladan, klub, madaniyat va istirohat bog‘lari yoshlarning bo‘sh vaqtini uyushtirishda, ularni har xil badiiy

---

<sup>1</sup>Karimov I.A. Biz tanlangan yo‘l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. 15.T. - Toshkent: O‘zbekiston, 2003. T.11. - 320 b.



havaskorlik tugaraklari va uyushmalariga jalb etib, turli bayramlar, teatrlashgan tomoshalar, sayllar, dam olish kechalar, raqs kechalari kabi turli tadbirlar tashkil qilish borasida yaxshi tajriba to'plashgan.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarda yoshlar bo'sh vaqtida qatnashadigan tadbirlar doirasi anchagina keng. Ular orasida muloqotli, kungilochar - «Dam olish kechasi», «Shanba oqshomida», «Kulgi kechasi», «Do'stlik kechasi», «Qizlar davrasida» kabilar; San'at bilan bog'lik bo'lgan - «She'riyat kechasi», «Doston kechasi», «Qo'shiq va raqs oqshomi», «Musik;a ohangi», «Teatr ko'zgusi» kabilar; Bayramona dam olishga oid sayllar - «Bog sayli», «Tog' sayli», «Lola sayli» kabilar;

Xalq o'yinlari, musobaqalarga boy «Sog'lik - tuman boylik», «Azaliy o'yinlar» kabi tadbirlar keng sho'hrat qozongan.

Madaniyat va istirohat bog'lari va klublarida uyushtiriladigan tadbirlar foydalanilgan vositalar turli tavsiya karakterida bo'lishi mumkin. Ayniqsa, ma'rifiy-huquqiy, musiqali-raqsli va badiiy-adabiy tavsifdagi tadbirlarni tashkil qilish yaxshi natija beradi.

Ma'rifiy-xordiqli tadbirlardagi yangi axborotlar, ma'lumotlar, bilimlarni olish, xordik, chiqarish jarayoni bilan chambarchas bog'lanib ketadi.

Odatda bunday dasturlar ikki qismdan tashkil topadi: birinchi bo'limda yoshlarni qiziqtradigan mavzu tanlanib, bunda axborotlar badiiy shaklda tomoshabinlarga havola qilinadi. Ko'pincha bu qismga odamlarni uylantiradigan va hayajonga soladigan muammolar ham olinadi.

Dasturning ikkinchi qismida esa maroqli dam olish uchun unlab turli qiziqarli o'yinlar, topishmoqlar, viktorinalar, qo'shiqlar va hokazolar foydalaniladi. Musiqali-raqsli tadbirlar, asosan, musiqa, ashula va albatta raqslardan tashkil topadi.

Ma'lumki yurtimiz aholisining 64 foizini yoshlar tashkil etadi. Demokratik jihatdan olib qaraydigan bo'lsak O'zbekiston Respublikasi yoshlar mamlakati deyishga ilmiy asoslar bor. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda "Har qaysi davlat yoki millat o'z farzandlari qiyofasida unib o'sib kelayotgan yosh

avlod timsolida, shu xalqqa xos eng go'zal fazilatlarni namoyon etadigan, uning ezgu-orzu niyatlarini amalga oshirishda mardlik, fidoiylik ko'rsatishga qodir bo'lgan o'z tayanchi va suyanchini ko'rishi tabiiydir<sup>1</sup>.”

Bizning bugungidek dorilomon kunlarda istiqlol bergan barcha imkoniyatlar zamirida komilikka yetishayotgan yoshlarimizning ijtimoiy xayoti qaysi orzu intilishlar tomon yo'nalganligi va uni maqsadli amalga oshirishda turli vositalar jumladan, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini ham o'rni beqiyosdir.

Qadimda tabiblar musiqa bilan ham bemorlarning dardini davolaganlar. Madaniy ma'rifiy muassasalar o'z faoliyatini amalga oshirishda musiqani asosiy omillardan biri deb hisoblaganlarida bu faoliyatning ta'sir kuchini oshirib, insoniyatni tarbiya vositasiga aylanishini ko'zlaganlari ham ayni haqiqatdir.

Hozirgi kunda madaniy-ma'rifiy muassasalar respublikamiz madaniyat va sport ishlari vazirligi tarmog'ida bo'lib, viloyatlar, tuman qolaversa chekka-chekka qishloq hayotiga kirib borish, ularning ijtimoiy turmush darajasini yaxshilash, madaniylashuvni amalga oshirish, shuningdek, insonparlik, qalban poklik, mehru - muruvat, hayri-sahovat, dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, eng asosiysi yosh avlodni milliy ma'naviyatimiz, urf-odatlarimizga sodiq qilib tarbiyalash, jamiyat kishilari ko'z o'ngida tinch va osuda xayotga intilish va uning qadriga yetish, jaxolatga qarshi ma'naviyat bilan kurashmoq, yosh avlod ong shuurida yot g'oyalar paydo bo'lishi, mafkuraviy bo'shliq vujudga kelishini oldini olishga qaratilgan amaliy faoliyatni amalga oshiradi.

Xalq ijodi-tarixiy taraqqiyot davomida xalqning idealariga badiiy munosabat va intilishdan iborat bo'lib kelgan. Shuningdek, madaniy ma'rifiy muassasalar faoliyatini rivojlantirish, yoshlar ma'naviyati borasidagi amaliy harakatlarni amalga oshirishgda kasaba uyushmalari hamkorligiga tayanish, jamoalardagi yosh kadrlar kasbiy maxorati bilan bir qatorda ma'naviy salohiyatini oshirishga qaratilgan yangicha ish uslubini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. - Toshkent.: O'zbekiston, 1995. - 45 b

Ayni kunlarda Respublikamizning barcha hududlarida faoliyat yuritayotgan madaniy-ma'rifiy muassasalarning yoshlar tarbiyasiga ta'siri katta albatta. Madaniy-ma'rifiy muassasalarda o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarning asosiy ishtirokchilari yoshlar ekani, eng asosiysi esa tashkilotchilar tarkibida yoshlarning mavjudligi bu tadbirning maqsadi yoshlar masalalarini ham qamrab olishini beihiyor ta'minlaydi. Shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, yoshlar hayoti, muammolari va yutuqlari haqida yoshlar o'zigina haqiqiy ta'surotni beradi, eng ta'sirli ifoda vositasi bo'ladi.

Bunday tadbirlarda bu san'at turlarining eng yaxshi namunalari targ'ib qilinadi. Unda eng yaxshi raqs uchun musiqa bilimdonlari va sevimli qo'shiq ijrosi uchun omma o'rtasida tanlovlar o'gkazilishi mumkin.

Yoshlar o'rtasida qiziqarli o'yinlar va sport musobaqalari o'tkaziladi. Chunonchi, «Balli, yigitlar» va «Balli, qizlar» kabi tanlovlar ham tashkil qilinadi.

Bayramning oxirgi qismida ko'rik-tanlov g'oliblari taqdirlanadi, ularga bag'ishlanib ko'y va qo'shiqlar ijro etiladi.

Bo'sh vaqtda yoshlar uchun nafaqat madaniyat xodimlari, balki yoshlarning o'zi ham madaniy dam olish tadbirlarni tashkil qilsa bo'ladi.

Buning uchun madaniyat muassasalarda yoshlar to'planadigan, so'hatlashadigan, ijodiy ehtiyojlarni qondiradigan maxsus sharoitlar yaratmog'i lozim. Bu borada «Yoshlar xonalari», «Yoshlar klublari», «Yoshlar ijodiy guruhlari» kabi tajribalardan yaxshi foydalansa bo'ladi.

«Yoshlar klubining a'zolari o'zlarining ma'naviy ehtiyoji, talabi, qiziqishi asosida turli shakldagi maroqli va mazmunli tadbirlarni uyushtirishi mumkin. Shuningdek, ular nafaqat o'zlarining, balki mahalliy yoshlarning madaniy dam olishiga yordam berishi diqqatga sazovordir. «Yoshlar klubi»ni tashkil qilish borasida quyidagi metodik maslahatlarni tavsiya etsa bo'ladi: «Yoshlar klubi» maxsus reja va dasturlar tuzib, ish olib boradi, klub a'zolari dam olish kechasi tashkil qilib, unta har gal yangi jamoa a'zolari, yosh ishchilar, talabalar, yuqori sinf o'quvchilari va boshqalarni taklif qilsa bo'ladi.

Eng qiziqarli ishni badiiy qismga javobgar shaxs olib borishi mumkin. U har bir yig'ilishning badiiy programmasini tuzadi. U uyushma a'zolarining ijodiy qobilyatlaridan kelib chiqib, she'r, hikoya, ashula, askiya, latifa, topishmoqli o'yinlarni kim va qachon aytishini belgilaydi. Bunday rahbar ishning diqqatiga sazovor tomoni shundaki, u uyushma a'zolarining u yoki bu sohadagi ijodiy qobilyatini ochadi.

Uyushma a'zolari rioya qilishi shart bo'lgan «Nizom» qabul qilinishi -bu intizom ishlarini yaxshilashga asos bo'ladi. Intizomga javobgar shaxs - bu ishlarni nazorat qilishi bilan birga, yig'ilish bo'ladigan joyni tartibga keltiradi.

«Yoshlar klub»larining foydali tomonlari shundaki, u eng avvalo, bshlarni yaxshi hordiq chiqarishga, muloqot, so'hat natijasida ma'naviy boyishga, ijodiy qobilyatlarini namoyish qilish va rivojlantirishga ko'mak beradi.

«Yoshlar klubi» faoliyatini uyushtirish va ularni ijtimoiy foyda keltiradigan darajada tashkil qilishga yordam berish - bu mahalliy madaniyat muassasalarining jiddiy vazifasi bo'lmog'i lozim<sup>1</sup>.

Yoshlarning ravnaqi uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lgan bo'sh vaqtdan samarali foydalanishda madaniy-hordiqiy tadbirlarning ahamiyati benihoyat kattadir.

Yoshlar uchun maxsus tadbirlar tayyorlashda madaniy-ma'rifiy muassasalar va yoshlar qo'mitasi hamkorlikda faoliyat olib borgandagina yaxshi natijalarga erishiladi. Tashkilotchilar yoshlar uchun tadbirlar uyushtirayotganida an'analar, tajribalardan foydalanish bilan bir qatorda yangilik, ijodkorlik, tashabbuskorlikka aloxida e'tibor bermoqlari zarur. Yoshlar ijod va yangilik shaydosi ekanligini unutmazlik kerak.

Shuni qayd qilish kerakki, turli joyda yoshlarni vaqti, ehtiyoji, qiziqishi har xil bo'lishi mumkin. Bir hududda sho'hrat topgan tadbir, boshqa joyda qiziqish uyg'otmasligi mumkin. Shuning uchun har joyning o'z tadbirini topishga intilish kerak.

---

<sup>1</sup> www.gov.uz <http://www.gov.uz>

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chuqur ma'noli, mazmunli va shaklan go'zal va qiziqarli tadbirlar ko'pchilikka yoqar ekan. Joylarda yoshlarning madaniy dam olishini uyushtirishda tadbirning mohiyati, mazmuni va ijtimoiy ahamiyatiga alohida e'tibor berish kerak.

Shuningdek, yoshlar uchun tadbirlar tashkil qilishda mahalliy sharoit, madaniyat muassasalarining moddiy, ma'naviy, badiiy va texnik imkoniyatlaridan hamda badiiy havaskorlik jamoalarining ijodidan samarali foydalanmoq lozim.

## **Xulosa**

Yurtimizda sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2002-yil 24 oktyabrda imzolangan «O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish Jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida»gi farmoni bu sohada qo‘yilgan yana bir katta qadam bo‘ldi. Davlatimiz rahbari Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasining maqsad va vazifalari, uning yurtimiz farzandlarini sog‘lom va baquvvat qilib voyaga yetkazishdagi ahamiyati, ushbu tashkilot faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda samaradorligini oshirish borasida bir qator vazifalarni ko‘rsatib bergandilar. Hozirgi kunda O‘zbekiston ko‘pgina xalqaro sport musobaqalar o‘tkaziladigan joyga aylanmoqda.

Bunday yirik sport tadbirlari eng avvalo millat sog‘lig‘i mustahkamlanganini, sportchilarimiz mahorati o‘sayotganini, O‘zbekistonning jahonda obrusi ortib borayotganini namoyish qilmoqda.

Mustaqil Respublikamizni jahonga tanitishda sportning ahamiyati katta bo‘lib. Hozirgi kunda milliy o‘yinlar, jumladan kurash, uloq, xalqaro sport turlari - tennis, boks, futbol kabilar dunyo xalqlari o‘rtasida o‘zbeklarning obrusini oshirmoqda.

Sportni yanada rivojlantirish, respublikamiz vakillarining jahon chempionatlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishlarida 1999-yil 27 mayda e‘lon qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining «O‘zbekistonda fizkultu‘ra va sportni yanada rivojlantirish to‘g‘risidagi qarori muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Yosh avlodni milliy mafkura negizida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash uchun jismoniy va ruhiy sog‘lomlikni muxofaza qilish hamda mustaxkamlash, sog‘lom turmush tarzi asoslarini shakllantirish taqozo etiladi.

Jismoniy tarbiyadan to‘g‘ri foydalanishning eng muhim natijasi insonni jismoniy kamol toptirishning majmu ko‘rsatkichlariga erishish bo‘lib, u individual jismoniy iste'dod rivojlanishining yuqori darajasini ifodalaydi, shaxsni rivojlantirish hamda uzoq yillar sog‘liqni saqlash qonuniyatlariga muvofiq keladi. Sog‘lom, yuksak darajada ma'lumotli va fidokor yoshlari bo‘lgan xalq esa o‘zining buyuk kelajagini muqarrar ta'minlaydi. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya va

sportning ommaviyligi, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, ularni rivojlantirish har tomonlama uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Sport jismoniy tarbiyaning tarkibiy qismi va ijtimoiy-madaniy faoliyat turidir. Yoshlarni xadrbiy-vatanparvarlik ro'hida tarbiyalashda sportning o'rni beqiyosdir.

Sportning zamonaviy turlari yoshlar muhitida giyohvand moddalar va alkohol quliga aylanishning oldini oluvchi samarali vosita hisoblanadi.

Ijtimoiy-madaniy hamda bo'sh vaqtni madaniy o'tkazish bilan shug'ullanuvchi muassasalar ko'ngilli ishtirok etishlari va mashg'ulotlarning ko'proq rang-barangligi (musobaqalar, mashqlar, bayramlar) tufayli bolalar hamda o'smirlarni jalb etishga, ijobiy intilishlarni va mashg'ulotlarga barqaror qiziqishni shakllantirishga ko'maklashadi.

Hozirgi paytda har qanday ijtimoiy-madaniy muhit (bo'sh vaqt, ta'lim, muloqot muxiti va x.k.) singari, jismoniy tarbiya va sport sohasi ham jamiyatda hamda kishilar ongida sodir bo'layotgan o'zgarishlarga doim va hamda yerda ham tayyor emas, ushbu muxitni tartibga solishga, uni maqsadga muvofiq tashkil qilishga ehtiyoj muntazam seziladi. Bunday ahvol aholining jismoniy tarbiyasi uchun qulay muhit yaratish bir qator ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogik, moddiy-texnikaviy masalalarni hal qilishni taqozo etishi haqida xulosa chiqarish uchun asos bo'ladi.

Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga qiziqqan va ba'zi yutuqlarni qulga kiritgan o'kuvchilarni sport maktabiga yo'llash mumkin. Jismoniy mashqlar o'smirlar tanasida moddalar almashinuvini ta'minlaydi. Ularning aqliy va ruhiy qobiliyatini oshiradi, ruhini tetik, tanasini salomat, chidamli va baquvvat qiladi. O'rta maktab o'kuvchilari gimnastika va yengil atletika bilan shug'ullanishlari zarur.

Mustaqil O'zbekistonimizda sport sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bolalar va o'smirlarni jismoniy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash davlat dasturining asosiy mazmuniga aylanmoqda. Chunki, kelajak avlodlar taqdiri

bugungi sogʻlom kishilarimizning ma'naviy va jismoniy barkamolligi bilan bogʻliqdir.

Ijtimoiy-madaniy muxit tashkil qilinar va rivojlantirilgan ekan, uning asosiy bogʻinlari: maktab, oila, boʻsh vaqtni madaniy oʻtkazish bilan shugʻullanuvchi hamda jismoniy tarbiya-sogʻlomlashtirish muassasalarining imkoniyatidan eng koʻp darajada foydalanish; jismoniy tarbiya tashkilotchisi boʻlgan pedagogning boʻsh vaqt borasidagi mahoratini oshirish, ijtimoiy-madaniy faoliyat jarayonining oʻzini uyushtirish hamda uni ruyobga chiqarish uchun shart-sharoit, omillar va imkoniyatlar majmuini yaratish bilan bogʻliq muammolarni hal etish zarur.



## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

### **Hukumatimiz qonun hujjatlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi «O'zbekistonda fizkultura va sportni yanada rivojlantirish to'g'risidagi qaror.

2. 1999-yil 27-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. «O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish Jamg'armasini tashkil etish to'g'risida» -T.: 2002 yil 24 oktyabr

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi 2009 yil 9 dekabr

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining «O'zbekistonda fizkultura va sportni yanada rivojlantirish to'g'risidagi qarori -T.: 1999 yil. 27 may.

### **Prezident I. A. Karimov asarlari**

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - Toshkent: O'zbekiston, 1995. - 269 b.

2. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. - Toshkent.: O'zbekiston, 1995. - 45 b.

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent.: O'zbekiston, 1997. - 326 b.

2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - Toshkent.: O'zbekiston, 2000. - 456 b.

3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. 15.T. - Toshkent.: O'zbekiston, 2000. - 528 b.

4. Karimov I.A. Biz tanlangan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 15.T. - Toshkent: O'zbekiston, 2003. T.11. - 320 b.

5. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimiz hayot darajasini oshirish - barcha ishlarimiz mezoni va maqsadidir. 15.T. - Toshkent: O'zbekiston, 2007. - 320 b.

6. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish - ustuvor vazifamizdir. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2007. - 48 b.

7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent.: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.

### **Darslik va o‘quv qo‘llanmalar.**

1. U.Qoraboyev “O‘zbek xalqi bayramlari”. -T.: 2001 yil.

2. Shuhrat G‘oyibnazarov “Ommoviy madaniyat” -T.: “O‘zbekiston”2012 yil. 217-219 b.

3. Durdonalar xazinasi: Hikoyatlar, masallar, rivoyatlar, nasihatlar, hikmatlar, latifalar Jamoatchilik asosida muharrir M.Qodirov.-T.: Sharq, 1999.-192 b.

4. Murod Malik. O‘zbek qadriyatlar. 1-kitob.-T.: Cho‘lpon, 1995.-271 b.

5. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.-T.: O‘qituvchi, 1996.-192 b.

6. Temur tuzuklari /Mas'ul muharrir Muhammad Ali.-T.: Sharq, 2005.-160 b.

7. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot: Ilmiy ishlar to‘plami /Muharrir A.Umarov.-T.: O‘zbekiston, 1997.-199 b.

8. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasini /Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur; Mas'ul muharrir H.Karomatov.-T.: Toshkent Islom universiteti nashriyoti, 2001.-617 b.

9. Homidiy Hamidjon. Jamiyatni ma'rifat qutqaradi: Tarix va zamon: [O‘zbek xalqining milliy qadriyatlar folklorida...] //Muloqot.-2000.-№4.-B.25-29.

### **Internet saytlari.**

1. [www.google.uz](http://www.google.uz) <<http://www.google.uz>>

2. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) <<http://www.gov.uz>>


3. [www.fikr.uz](http://www.fikr.uz) <<http://www.fikr.uz>>

4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz) <<http://www.edu.uz>>

## Ilovalar


1-ilova

Kurash bo'yicha birinchi jahon chempionatida dunyoning qariyb 50 mamlakatidan kelgan sportchilar qatnashdi. Bular



*Sport turlar.*

*2-ilova*



3-ilova.

O'zining jismoniy kamoloti haqida qayg'urishga o'rgatish.

Jismoniy tarbiyaning shaxs kamolotidagi ahamiyatini aytib beradi

Jismoniy tarbiyaga davlat tomonidan berilayotgan e'tiborini izohlaydi.

Jismoniy tarbiya bo'yicha olgan bilimlaridan kundalik hayotida foydalaniladi.

Maktabda, oila va jamoatchilik asosida jismoniy tarbiya berishni tekshirib ko'radi.

O'zining shaxsiy kun tartibi va jismoniy mashg'ulotlari bilan shug'ullanishni loyhalashtiradi.

Jismoniy kamoloti turlicha bo'lgan yoshlarni jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishlari taqqoslanadi.